

JISMONIY TARBIYA

MASHQLAR,
KALISTENIK MASHG'ULOTLAR VA GIMNASTIKA



ERNEST BEYKER XOUTON

796.01(045.8)

X 70

ERNEST BEYKER XOUTON

JISMONIY TARBIYA

MASHQLAR, KALISTENIK
MASHG'ULOTLAR VA GIMNASTIKA



Toshkent – «Donishmand ziyosiv» – 2025

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

No 0/18 1 3031 / 1

UO'K 796(075.8)
KBK 75.1ya73
X 78

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining
buyurtmasiga asosan nashrga tayyorlandi va chop etildi.**

Ingliz tilidan **Matluba Omonova** tarjimasi

Ernest Beyker Xouton.

Jismoniy tarbiya [Matn]: o'quv qo'llanma / Ernest Beyker Xouton. – Toshkent:
Donishmand ziyosi, 2025. – 216 b.

«Jismoniy tarbiya (Mashqlar, kalistenik mashg'ulotlar va gimnastika)» o'quv qo'llanmasi jismoniy tarbiya fanining samarali tarzda xizmat qilishi uchun zarur bo'lgan barcha boshlang'ich mashqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kitobda barcha mashqlar amaliyotga tayangan holda bajarilishini inobatga olib, nazariy bilimlarga kamroq e'tibor qaratiladi. Maktab darsliklarida gigiyena mavzusi to'liq yoritilganligi bois, bu sohaga kamroq to'xtab o'tiladi.

Mazkur xorijiy o'quv adabiyoti professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar va talabalarning o'quv va ilmiy faoliyatida foydalanish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilar va keng ilmiy jamoatchilik uchun tavsiya qilinadi.

Ushbu xorijiy o'quv adabiyotidan tijorat maqsadida foydalanish qat'iyan man etiladi.

MUQADDIMA

Quyida Vena va Parij universitetlarining magistr darajasi va London Qirollik shifokorlar kollejining litsenziyati J.G. Spurjeimning «Ta'lim» asaridan bir nechta parchalar keltirilgan:

«Har ikkiala jins vakillari, ayniqsa qiz bolalarning jismoniy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilishi kerak. Yetuk va sog'lom tana, professional muvaffaqiyat va shaxsiy farovonlikning asosini tashkil etadi. Biroq, bu borada ko'plab ota-onalar aqliy qobiliyatni rivojlantirishni jismoniy salomatlikdan ustun qo'yadilar. Ota-onalar farzandlarining o'qish va yozish kabi ko'nikmalarining erta o'rganishini muhimligini anglasalar-da, ularning jismoniy salomatligini e'tiborsiz qoldiradilar. Bolalar ko'pincha havo almashinuvi cheklangan havodan nafas olishga va harakatsiz o'tirishga majbur qilinadi. Ushbu amaliyot ayniqsa nozik tanaga yoki rivojlanmagan jismoniy salohiyatga ega bolalar uchun zararli hisoblanadi. Bunday bolalarning jismoniy chidamliligi cheklangan bo'lib, dispepsiya¹, bosh og'rig'i va turli asab kasalliklariga chalinishga olib keladi. Ularning miyalari yallig'lanish va jiddiy asoratlarga moyil bo'ladi, ko'plab hollarda bunday tabiiy rivojlanishga ahamiyat berilmaslik natijasida erta o'lim yuzaga kelishi mumkin». Haqiqatan ham, jismoniy faollikning inson axloqiy salomatligiga ta'siri yetarlicha o'rganilmaganligi afsuslanarli holat. Shunday ota-onalar borki, ular o'z farzandlarining qobiliyati va bilimini yuqori darajaga ko'tarish umidida ustozlarga ko'p mablag' ajratishadi, ammo uning o'ndan bir qismini bolalarining salomatligini ta'minlash yo'lida sarflashga ikkilanadilar. Ba'zi ota-onalar noto'g'ri taxminlarga tayanib, o'zlarining jismoniy holatlarini farzandlarining holatiga mos deb o'ylashadi. Ular qariyalikda jismoniy cheklovlarga va uzoq vaqt davomida aqliy zo'ravonlikka nisbatan salomatlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan bardosh bera olishlarini, go'yo yosh va nozik bolalar ham buni bajara olishadi deb hisoblaydilar. Bunday tushunchalar mutlaqo noto'g'ri bo'lib, tana deformatsiyalari (shakli buzilishi), umurtqa pog'onasi qiyshayishi va turli kasblarga layoqatsizlik, shuningdek kelajakdagi vazifalarni bajara olmaslik ko'pincha bolalarni noto'g'ri tarbiyalash oqibatida yuzaga keladi. Sog'lom tananing afzalliklari odamlarning o'zlari, atrofidagi do'stlari va nasli uchun beqiyos boy-

¹ *Dispepsiya* – ovqat hazm qilishning buzilishi, me'da-ichak faoliyatining izdan chiqishi bilan kechadi.

likdir. Tana va aql uyg'unlikda tarbiyalanishi hech qachon biri ikkinchisining hisobiga bo'lmazligi kerak. Salomatlik boshlang'ich ta'limning asosi, ta'lim esa bezagi bo'lishi lozim. Tananing rivojlanishi aqlning namoyon bo'lishiga yordam bersa, yaxshi ruhiy tarbiya uning salomatligiga hissa qo'shadi».

«Badantarbiya – ta'limning muhim tarkibiy qismi. Bolalik davrida mushak faoliyati keyingi yoshlardagi jismoniy faollikka qaraganda ko'proq bo'ladi. Bu faoliyat organizmning rivojlanishi va salomatlik uchun zarur omillardan biridir. Bundan tashqari, jismoniy mashqlar aqliy va axloqiy qobiliyatlarni bir vaqtda rag'batlantirish bilan birlashtirilishi mumkin. Qo'l, oyoq va gavda mushaklari jismoniy mashqlarning kelajakda salomatlik uchun foydaliligiga qarab mashq qilinishi mumkin. Barcha gimnastika mashqlari ham aynan mana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy mashqlar shaxsning tug'ma qobiliyatidan tashqari, tug'ma kuchi va progressiv o'sishiga mutanosib bo'lishi kerak, chunki ularni noto'g'ri qo'llash inson sog'lig'iga zarar keltiradi. Aytishlaricha, Milon¹ kun sayin bir buzoqni yelkasida ko'tarib yurar ekan. Jismoniy mashqlar mushaklarni mustahkamlagani, uyquni yaxshilaganligi va jismoniy buzilishlardan himoya qilgani uchun, uni ko'proq rag'batlantirish kerak. Gimnastik mashg'ulotlar bilan jamiyatning barcha turdagi qatlami shug'ullanishi lozim. Bu borada yunonlarning gimnastika mashqlari hammaga ma'lum va mashhurdir».

Monten o'zining 1580-yilda nashr etilgan «Tajribalar» asarida jismoniy tarbiya davosini chiroyli tarzda ilgari suradi, Lokk ham o'zining «Ta'lim haqida tajribalar» kitobida xuddi shunday fikrlarni keltiradi. Bu faylasuflarning maslahatlarini 1774-yilda Bassedou amalda qo'llab, Dessauda Philantropinum² deb nomlangan ta'lim muassasasini tashkil etib, jismoniy mashqlarni o'qitishning muntazam bo'limi sifatida kiritdi. Boshqa maktablarda, xususan, Gota yaqinidagi Shnepfentalda Salzman tomonidan tashkil etilgan maktabda ham shunday amaliy ishlar qilingan. Buyuk maktab islohotchisi Pestalotsi jismoniy tarbiyaga yetarlicha e'tibor qaratgan, F.L. Yan esa uni Germaniyada ommalashtirgan. Bu mavzuda ko'plab ishlarni amalga oshirgan taniqli shaxslarning ismlari deyarli bir jildni tashkil qiladi.

Gigiyena va jismoniy madaniyat biri ikkinchisiz to'liq bo'lmaydigan, bir-biriga mos keladigan fanlar ekanligini ta'kidlash joiz. Aslida, jismoniy madaniyatga faol qiziqish bildirgan o'quvchilar tana va ongning barcha qobiliyatlarini eng yuqori darajada rivojlantirish muhimligini anglab yetadilar. Agar ular jismoniy madaniyat mavzusi keng bir sohani qamrab olishini va ko'proq narsani o'z ichiga olishini anglasalar, bu faqat mushaklarni qattiq va kuchli qilishdan ko'proq narsa ekanligini; faqat o'pka bilan chuqur nafas olishdan ko'proq narsa ekanligini;

¹ Milon (miloddan avvalgi 540–511-yillar) mashhur qadimgi yunon sportchisi bo'lgan.

² *Philantropinum* – bu 1774-yilda Germaniyaning Dessau shahrida nemis pedagogi Bassedou tomonidan tashkil etilgan taraqqiyparvar ta'lim muassasasi edi. Maktab an'anaviy ta'limni isloh qilishni maqsad qilgan va amaliy va insonparvar yondashuvga e'tibor qaratgan.

faqat chidamlilik qobiliyatidan ko'proq narsa ekanligini; bu inson tanasini uning barcha imkoniyatlariga moslashtirish ekanligini tushunsalar, ular tabiiy ravishda va o'z xohishlariga ko'ra gigiyenaga e'tibor qaratadilar, bu esa ularga hayotiy ahamiyatga ega tirik haqiqatga aylanishi mumkin.

Ba'zi oddiy kalistenik yoki gimnastik harakatlar salomatlik va kuch uchun foydaliligini yetarli deb hisoblash noto'g'ridir. Bu nazariyada aql bilan harakat bir-birini istisno qiladi. Bunday mashqlar foydali bo'lishi uchun har kuni takrorlanishni talab qilsa, aql oziqlanadigan hech narsaga ega bo'lmaydi. Buning natijasida e'tiborsizlik, loqaydlik va befarqlik yuzaga keladi.

Har bir mashq zavq olish maqsadida bo'lishi kerak, ya'ni aql tana harakatlari ni boshqara olishi lozim. Shuning uchun mahoratni rivojlantirish imkonini beradigan mashqlar hamma uchun qiziqarli bo'ladi. Bu tushuncha to'liq ta'riflanganda, ishtirokchi yuqori darajadagi gimnastika tarmoqlariga asos bo'lgan boshlang'ich mashqlarga, masalan, gorizental tayoq, qilichbozlik, chigil yozish mashqlari va hokazolarni ishlatishga qiziqish bilan yo'l oladi».

Gimnastika va kalistenik mashqlarining mushak tizimidan tashqari boshqa har qanday tizimga ta'siri ko'pincha hisobga olinmaydi. Ularning nafas olish, qon aylanish va oziqlanish tizimlari ta'sirini oshirishdagi ahamiyati e'tiborsiz qoldiriladi. Biz buni faqat og'ir gantellarni ko'tarish kabi aqliy mashqlar bilan shug'ullanadiganlar misolida ko'ramiz.

Modomiki, intellektual izlanishlar bilan shug'ullanuvchilar gimnastika va kalistenik mashqlarni kuch hosil qilish uchun o'ylab topilgan bir necha qo'pol va bir xil harakatlardan iborat mashqlar to'plami deb hisoblab, ularga munosib diqqat qaratmaydilar. Biroq, bu mashqlar keng tarqalgan bo'lsa, gimnastika va kalistenik mashqlar vaqtincha ularning odatdagi faoliyatlaridan diqqatni chetga surib qo'ysa ham, aqliy qobiliyatlari passiv bo'lmaydi. balki boshqa yo'nalishga qaratiladi; shunda ular mahorat va nafislikni egallash orqali jismoniy salomatlik va kuchni topishga undaladi, bu esa jismoniy madaniyatning pirovard maqsadidir». Gimnastika va kalistenik mashqlarning tizim asosida o'quvchilarni muntazam va mukammal mashqlarga o'rgatish, haqiqatan ham jismoniy tarbiyani samarali olib borishning birdan-bir yo'lidir.

Mavzuni ommalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yana bir jihat – yillik maktab tadbirlari. Maktab hayoti yoshlikning eng yoqimli xotiralari bilan bog'langan ko'plab voqealarga to'la bo'lib, yillik tadbirlarda aqliy va jismoniy tarbiyaning yil davomidagi muvaffaqiyatlari teng ishtirok etishi lozim. Bu jarayon har doim ta'lim muhitida yoqimli taassurotlarni uyg'otadi va ko'p yillar davomida o'chmas xotiralarni qoldiradi. Shuningdek, ota-onalarning ongi va qalbida ham ma'lum darajada qiziqishni uyg'otadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, havoda bajariladigan va boshqa noxush gimnastika harakatlariga qarshi eng samarali davo gimnastika bo'yicha bilim va mahoratning keng tarqalishidir. Shunda omma to'g'ri asosda bajarilgan mahoratli



chiqishlarni qadrlaydi va hissiyotga asoslangan chiqishlarni qo'llab-quvvatlash o'z-o'zidan so'nib qoladi.

Bu ishning umumiy rejasini o'rganib chiqqach, salomatlikning muhim predmeti bilan qiziquvchi barcha shaxslar, jumladan yoshlarimiz unda berilgan mashqlar kursini bajarishda o'zlarining aqliy hamda jismoniy kuchlarini ishga soladilar, ularning qiziqishlari harakat mahorati va nafosatini egallash hamda salomatlik bilan qo'llab-quvvatlanadi, degan xulosaga kelishlari hurmat bilan tavsiya etiladi.

Muallif

SPORT ZALI

*Tayyorlov maktablari, kollejlari, oliy o'quv yurtlari va
o'rta maktablar uchun*

Jismoniy tarbiya zallariga mos keladigan eng yaxshi uchta o'lcham talab qilinadigan sig'im 1. 80 x 40; 2. 70 x 35; 3. 60 x 30 tarzida qabul qilingan. Eng kichik tavsiya etiladigan o'lcham esa oxirgi o'lchamdir. Bino yonlaridagi derazalar iloji boricha yuqoriga, ya'ni taxminan uch fut balandlikda va olti fut kenglikda joylashtiriladi. Binoning oxiriga katta bitta yoki bir nechta derazalar o'rnatiladi va oxiridagi boshqa devor esa yopiq devor bo'ladi. Barcha derazalar burulish asosida ochilishi lozim. Eshiklar binoning deraza yoki derazalari joylashgan oxirida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bir tomonda yog'och qipig'i va shunga o'xshash boshqa narsalar uchun katta eshik o'rnatiladi. Yopiq devor joylashgan binoning oxirida taxminan yigirma fut masofada taxta pol o'rnatilsa, maktab tadbirlari, gimnastika xori jamiyati, qo'l to'pi va boshqa bellashuvlar uchun yaratilgan qulaylik bo'ladi. Bu joy butunlay uskunalaridan ozod bo'lishi lozim. Trapetsiya va uchish halqalari binoning markaziy qismiga joylashtirilib, osilgan nuqta yerdan o'n olti fut balandlikda, osilish nuqtasi va yon halqalar qatori yerdan o'n uch futdan o'n olti futgacha bo'lgan har qanday balandlikda bo'ladi. Bino to'g'ri isitilishi va shamollatilishi nazardan chetda qoldirilmaydi. Agar pechka bilan isitilsa, u statsionar gimnastika jihozlari eshik va derazalar joylashgan binoning oxiriga to'g'ri joylashtiriladi. Binoning yopiq devori tomondagi poldan tashqari qolgan barcha pol taxminan bir yarim fut chuqurlikda qipiq yoki qumdan iborat bo'ladi. Unga har kuni ertalab, birinchi sinf mashg'ulotlari boshlanishidan taxminan bir soat oldin suv sepiladi, agar yana talab qilinsa, tushda qayta suv sepilib chiqiladi. Zalda sinf tomonidan ishlatilmaydigan ko'chma jihozlar xavfsiz saqlanishi uchun shkaf ham joylashtiriladi.

Mashqlarni bajarish uchun talab qilinadigan statsionar jihozlarning ajralmas qismi quyidagilar:

– 2 juft gorizontal joylashgan brus, 2 juft parallel joylashgan brus, 1 jufti ikkinchisiga nisbatan keng va baland bo'lmagan yakka trapetsiya, 1 juft uchar halqa, uch juft arqon va yon halqalar qatori.

– Zarur bo'lgan ko'chma asboblari, ya'ni gimnastika cho'qmori, yog'och qo'ng'iroqlar, yog'och miltiqlar, folga va niqoblar, bitta tayoq va ikkita niqob, tayoqchalar yoki shtangalar.

Gimnastika cho'qmorining og'irligi bir yarim funtdan uch funtgacha, yog'och gantellarning og'irligi bir funtdan ikki funtgacha bo'ladi. Gorizontal narvon xalaqit bermaydigan joyga qo'yilsa, sport zalning ko'rinishiga ko'rk qo'shgan bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan mashq jihozlaridan boshqa jihozlar juda ko'p joyni egallashi va qimmatga tushishi bois unchalik foydali emas. Maktab zali uchun qulayliklarning yana biri, sinf mashqlari uchun binoda iloji boricha bo'sh joyning bo'lishidir. Bundan tashqari, ularni sotib olish uchun sarflanadigan mablag'ni, maskalar va qo'lqoplar, yagona tayoqlar va boshqa shu kabi zarur jihozlarni sotib olishga sarflash ancha ma'qul yechimdir. Maktab zalida og'ir gantellar, zambarak to'plari va shunga o'xshash asboblarni bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

(2) Umumta'lim maktablari

Odatda umumta'lim maktablarining vasiylari chordoq kabi mavjud bo'lgan omborlarni gimnastika maqsadlarida uchun foydalanishlari mumkin. Shiypon yoki chordoq bo'lmagan joyda 60 x 30 o'lchamli gimnastika zali qurish yaxshiroq yechim. Agar yaxshi shiyponlar bo'lsa, ularni gimnastika zaliga aylantirish imkoni yuqori. Buning uchun derazalarni iloji boricha balandroq va binoning yon tomonlariga talab qilingancha joylashtirish kerak. Derazalarning ochilishi yoki burilishi ta'minlanishi lozim. Shamollatish va isitish to'g'ri yo'lga qo'yilishi, polni olib tashlab, uning o'rniga taxminan bir yarim fut yog'och qipig'i yoki qum qo'yish kerak; undan chiqadigan chang ertalab ishlatishdan oldin yoki tushda suv sepish orqali ushlab turiladi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan turg'un asboblarni faqat uch juft arqondan iborat bo'lib, arqonlar yerdan iloji boricha balandroq, taxminan o'n olti fut balandlikda, bir-biridan yigirma dyuym oraliqda osilib turishi va uch xil o'lchamda, ya'ni bir dyuym, bir va chorak dyuym, bir va yarim dyuym bo'lishi kerak. Arqonlar eng yaxshi manil matosidan bo'lishi, tugun qilishga yo'l qo'yilmasligi va uchlari toj tuguni bilan yakunlanishi kerak. Yengil yog'och gantellar va gimnastika cho'qmori zarur bo'lgan ko'chma jihozlardir. Yog'och gantellarning har biri yarim funtdan bir funtgacha, gimnastika cho'qmorining har biri to'rt dan uchdan to ikki funtgacha og'irlikda bo'lishi kerak.

UMUMIY KO'RSATMALAR

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari ichki his-tuyg'ular va ruhiy holatlardan farqli o'laroq, tashqi harakatlar yoki jismoniy mashqlarni iloji boricha mukammalroq bajarishlari talab qilinadi. Ular ta'lim jarayonida har doim xushmuomala va mehribon, jiddiy va g'ayratli bo'lishlari ham kerak. Mashqlar jarayonida o'qituvchilar eng muhim ma'lumotni qo'llaridan kelgan barcha vositalar bilan yetkazishga astoydil intilganliklarini ko'rsatib qolmasdan, ba'zi mashqlarni qachon ochiq havoda xavfsiz bajarish mumkinligini yoki ularning barchasini sport zali bilan chek-

lash kerakligini bilish uchun yetarli bilimga ega bo'lishlari shart. Aslida, o'qituvchilar o'quvchilar sog'liqlarini oshirish uchun turganligini nazorat qilish va bu muhim maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni ta'minlanishga mas'uldirlar.

Mashqlarning barchasi jonli tarzda o'rgatiladi va bajariladi. «Jismoniy tarbiya» o'qituvchisi sport zalida ma'lum tartib-qoidalar bajarilishini ta'minlaydi. Lekin shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar mashqlarning malaka, harakat erkinligi va zavqning eng katta jozibasi ekanligini, o'g'il bolalar va qizlarga ularni bajara olishlariga yordam berishini ham unutmastliklari lozim. Aks holda, o'quvchilar mashqlar ustida ishlash va sinab ko'rish kabi xohishga ega bo'lmaydilar. Ammo mashqlar paytida qat'iy intizom hukm surilishi dolzarbligicha qoladi.

O'qituvchi iloji boricha harakatchan, xatolarni tuzatadigan va zarur bo'lgan har qanday shaklda yordam bera oladigan ilg'or o'quvchini rahbar etib tayinlaydi. O'quvchilarning barchasidan mashg'ulotlarda faqat o'rtoqlarini kuzatishga ruxsat beribgina qolmay, balki faol ishtirok etishini ham talab qiladi. Chunki gimnastikani boshqalarning amaliyotiga qarab o'rganish imkonsizdir. Jismoniy tarbiya fanidan boshqa har qanday fanni sport zalida o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir sinf haftasiga to'rt marta yigirma daqiqadan o'ttiz daqiqagacha mashq qiladi. Agar mashq paytida boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa, tovonlarni bir-biriga yaqin tutish kerak. Masalan, tovonlarni bir-biridan ajratgan holda tebranayotgan tayoqlarni ko'rish estetik jihatdan chiroyli ko'rinmaydi. Mashq bajarayotganda og'izdan emas, balki burun orqali nafas olish talab qilinadi. Bu sabr-toqat bilan amalga oshirilsa, oxir-oqibat odatga aylanadi. Gimnastika yoki kalistenik mashqlar bilan shug'ullanayotganda qo'shiq kuylash yoki hatto ovoz chiqarib sanashga ham yo'l qo'yilmaydi.

Biroq, saf va tayyorgarlik paytida yoki ko'ngilochar tadbirlarda qo'shiq aytib shug'ullanish mumkin. Musiqa jo'rligida mashq qilishni, tarbiyalanuvchilar puxta bilmasalar, bunga mashq qilish davomida yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday faoliyatni faqatgina sport zaliga aloqador bo'lgan xor jamiyati tashkil etilishi mumkin.

Bundan tashqari, yadro otish va bolg'a uloqtirish kabi mashqlar yopiq joy uchun mos emasligi, o'quvchilar hayoti uchun noqulaylik va xavf tug'dirganligi bois gimnastika zaliga qo'yilmaydi. Kuz va bahorda mashqlar ko'proq vaqtni egallaydi, qishda faslida esa kalistenik va gimnastika mashqlari o'rin oladi. Vaqtni taxminan quyidagicha taqsimlash mumkin:

KUZ VA BAHOR

O'g'il bolalar uchun

Dushanba – 20 daqiqa mashg'ulot. 10 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Seshanba – 15 daqiqa yengil gantel ko'tarish mashqlari. 15 daqiqa uchinchi turkum kalistenik mashqlar.

Chorshanba – 15 daqiqa ikkinchi kalistenik mashqlar to'plami. 15 daqiqa statsionar arqon mashqlari to'plami.

Payshanba – 20 daqiqa mashg'ulot. 10 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Juma – Xor mashg'uloti.

Qiz bolalar uchun

Dushanba – 20 daqiqa mashg'ulot. 10 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Seshanba – 15 daqiqa ikkinchi kalistenik mashqlar to'plami. 15 daqiqa yengil gantel ko'tarish mashqlar to'plami.

Chorshanba – 15 daqiqa uchinchi kalistenik mashqlar to'plami. 15 daqiqa gimnastika cho'qmori bilan mashqlar.

Payshanba – 20 daqiqa mashg'ulot. 10 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Juma – Xor mashg'uloti.

QISH

O'g'il bolalar uchun

Dushanba – 15 daqiqa mashg'ulot. 15 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Seshanba – 10 daqiqa yengil gantel ko'tarish mashqlari. 20 daqiqa uchinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Chorshanba – 10 daqiqa ikkinchi kalistenik mashqlar to'plami. 20 daqiqa statsionar arqon mashqlar to'plami.

Payshanba – 10 daqiqa mashg'ulot. 10 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami. 10 daqiqa uchinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Juma – Xor mashg'uloti.

Qiz bolalar uchun

Dushanba – 15 daqiqa mashg'ulot. 15 daqiqa birinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Seshanba – 20 daqiqa gimnastika cho'qmori bilan mashqlar. 10 daqiqa ikkinchi kalistenik mashqlar to'plami.

Chorshanba – 15 daqiqa uchinchi kalistenik mashqlar to'plami. 15 daqiqa yengil gantel ko'tarish mashqlari.

Payshanba – 10 daqiqa mashg‘ulot. 20 daqiqa gimnastika cho‘qmori bilan mashqlar.

Juma – Xor mashg‘uloti.

Ushbu kitobdagi barcha mashqlar asboblarsiz bajarilganda, ular kalistenik mashqlar sanalsa; asboblari ishlatiladigan joylarda ular gimnastikaning asosiy qismiga kiradi.

I QISM. O'G'IL BOLALAR UCHUN MASHQLAR

GURUH BO'LIB BAJARILADIGAN MASHQLAR

Guruh mashqlari dala mashqidan o'zgartirishlar va qo'shimchalarsiz olingan bo'lib, faqat «askar» so'zi «o'quvchi» so'zi bilan almashtirilgan. Maktablarda guruh mashqlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

Uni o'zgartirmaslik sabablari quyidagilar:

Asosiy dala mashqlari bo'yicha belgilangan asosiy tamoyillar shunday sodda ifodalanganki, ularni o'rganish juda oson.

Asosiy dala mashqlari ko'p yillar davomida ishlatilgan bo'lib, har safar uning yangilanishi Imperator oliy hazratlari xizmati (Her Majesty's Service) xodimlari tomonidan, uning Majestelari¹ tomonidan buyruq berilgan holda amalga oshirilgan, shuning uchun u mumkin qadar mukammal bo'lishi kerak.

Mashqlar ko'ngillilar va muntazam o'quvchilar tomonidan qo'llaniladigan mashqlar bilan uyg'unlashishi kerak, shunda agar o'quvchi kelajakda ko'ngillilar yoki Harbiy maktabga qo'shilsa, ular uchun jangovar mashg'ulotlar bo'yicha o'rganadigan hech narsa bo'lmaydi.

ATAMALAGA TA'RIFLAR

TARTIB (TASHKILIY JOYLASHUV) – Bu ikki nuqta orasida yoki o'sha chiziqning uzaytirilgan qismi ustida tasavvur qilinadigan to'g'ri chiziq bo'lib, o'quvchilar shu chiziq bo'ylab tartiblanishi yoki yurishi kerak.

DIAGONAL SAF – Bu o'quvchilarning o'z oldiga qarab 45° burchak ostida yon tomonga harakat qilishini ifodalaydi.

SAFLAN – Fransuzcha *dresser* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, to'g'rilash ma'nosini anglatadi. Bu so'z o'quvchilarga o'z tartibini tuzatishlarini aytish uchun ishlatiladi.

O'NG QANOT – ketma-ket qatorda boshida turgan o'quvchi va **CHAP QANOT** – ketma-ket qatorda boshida turgan o'quvchi.

¹ «Her Majesty» (Uning Majestesi) – malika yoki qirollik ayolga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Britaniya qirollik oilasida «Her Majesty Queen Elizabeth II» (Malika Yelizaveta II).

QANOT (YO'NALISH) – Saf harakatlanadigan yo'nalish.

TESKARI QANOT – Safda qarama-qarshi yo'nalishga burilish.

QANOT (OLD TOMON) – Tashkiliy joylashuvga nisbatan old tomon, taxminiy dushman yo'nalishini bildiradi. Umumiy atama sifatida, bu so'z o'quvchilar birinchi marta buyruq berilgan holatdagi joylashuvlarini saqlab turgan yo'nalishni anglatadi.

ORALIQ – O'quvchilar yoki qo'shinlar o'rtasidagi yonma-yon bo'shliq.

BOSHLOVCHI – Aylanma harakatni amalga oshiriladigan yon tomon o'quvchisi.

QATOR – Yonma-yon turgan o'quvchilar qatori.

BO'LINMA – 8 dan 12 gacha bo'lgan o'quvchilardan iborat qism.

GURUH (OTRYAD) – Ichki tartib uchun bo'linma. Shuningdek, mashq qilish uchun tuzilgan kichik o'quvchilar guruhi.

UMUMIY QOIDALAR

Birinchi qoida

O'quvchiga yo'riqnoma berish.

O'qituvchilar o'z yo'riqnomalarini aniq, qat'iy va qisqa tarzda berishlari kerak. Ular boshlovchilarning turli qobiliyatlarini hisobga olgan holda, sabrli bo'lishlari zarur.

O'quvchilar mashqning bir qismini to'liq tushunib olganlaridan keyingina boshqa qismga o'tishlari mumkin. Dastlab o'quvchilar o'z joylarini o'rganişda, ularni o'qituvchi to'g'ri joylashtirishi kerak. Yetarlicha bilimga erishganlarida yoki ularga tanbeh berilganda o'zlarini tuzatishga o'rgatish kerak. Ularni mashg'ulotning biron-bir qismida juda uzoq ushlab turmaslik lozim.

Ikkinchi qoida

Mashqlar davomiyligi – Uzoq davom etadigan mashqlar, o'qituvchi va o'quvchilarning diqqatini charchatadigan bo'lsa, u holda qisqa va tez bajariladigan mashqlar afzalroqdir. O'quvchilar o'z qobiliyatlariga qarab, bir guruhdan boshqasiga bosqichma-bosqich o'tkazilishi kerak, shunda ilg'or va aqlli o'quvchilar, qobiliyati sust o'quvchilar tufayli orqada qolmasliklari ta'minlanadi. Birinchi guruhga yetishish o'quvchi uchun maqsad bo'lishi kerak.

Uchinchi qoida

O'zaro o'qitish – O'quvchilar o'rtasida o'zaro o'qitish tizimi qo'llaniladi. Bu ularning mashg'ulotlariga qo'shimcha qiziqish uyg'otadi va o'qituvchilik vazifalariga tayyorlaydi. O'quvchilar, o'z navbatida, guruhlarini mashqlar bajarishga va kuzatilgan har qanday xatoni tuzatishga undashlari kerak. Ta'lim berish jarayonida ma'lumot uchun iqtidorli bo'lganlarning ro'yxati o'qituvchilar tomonidan saqlanishi kerak.

To'rtinchi qoida

Saflanish buyrug'i – Har bir buyruq baland va aniq talaffuz qilinishi kerak, shunda barcha ishtirokchilar uni eshitishlari mumkin bo'ladi.

Bir soʻzdan iborat boʻlgan har bir buyruqdan oldin ogohlantirish boʻlishi kerak. Buyruqning ehtiyotkorlik yoki ogohlantiruvchi qismi sekin va aniq berilishi talab etilsa; oxirgi yoki ijro qismi boʻlsa, faqat bitta soʻz yoki boʻgʻindan iborat boʻlib, quyidagicha keskin va tez berilishi kerak: Saf –TOʻXTA, Saf – ORTGA (orqaga burilish uchun ushbu buyruq beriladi). Buyruqning ehtiyotkorlik yoki ogohlantiruvchi qismi va ijro etuvchi soʻz oʻrtasida har doim sekin pauza qilinadi.

Kengayish va muvozanat qadamida (5, 11-boʻlimlar) berilgan soʻzlar, harakatning mohiyati talab qilganidek, harakat keskin yoki sekin va ravon boʻlishi kerak.

Ogohlantirishning oxirgi soʻzi har qanday tayyorgarlik harakati uchun ishora boʻlganda, u ijro etuvchi soʻz sifatida beriladi va buyruqning qolgan qismidan sekin pauza bilan ajratiladi. Misol tariqasida, Oʻngga buyrugʻi shaklni, Qadam bos – tezlikni ifodalaydi. Goʻyo har biri oʻz ehtiyotkorligi va bajaruvchi soʻzi bilan alohida buyruq boʻlib tushuniladi.

Oʻquvchilar harakatda boʻlganda, bajaruvchi soʻzlarni buyruq bajarilishi kerak boʻlgan joyga yetib borishlari bilan bir vaqtda yakunlashi kerak. Shuning uchun, ehtiyotkorlik qismi, shu tarzda boshlanadi.

Oʻquvchilar buyruq soʻzlarini aytishni tez-tez mashq qiladi. Oʻqituvchi tomonidan dastlab, oʻquvchilarga buyruq soʻzlarini oldin ketma-ket, keyin esa bir vaqtning oʻzida vaqt va ohang bilan hamohanglikda aytadi.

ORALIQ MASOFALARGA GURUH MASHQI

O'quvchilar bir-biridan qo'l uzunligida bir qatorda (ya'ni yonma-yon) joylashtiriladi. Shunday tartibda tuzilgan bo'lsa-da, ular «Oraliqli guruh» deb ataladi.

Zarurat bo'lganda, tarkib yuqorida aytilgan ikkita qatordan iborat bo'lishi mumkin. Bu holatda, ikkinchi qatordagi o'quvchilar birinchi qatordagi o'quvchilar orasidagi oraliq masofalarni bosib o'tadilar, shuning uchun safda ular 10-mashg'ulotda ko'rsatilgandek o'z ballarini olishlari mumkin.

Birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni hech qanday qator tartibida joylashtirmasligi kerak; ular 8-mashg'ulotda ko'rsatilganidek qator tartibini, so'ngra 22-mashg'ulotda tavsiflanganidek oraliqlarni to'g'rilashni o'rgatish kerak. Agar oraliqlar bilan mashg'ulot talab qilinsa, ular 24-mashg'ulotda berilgandek yo'nalish bo'yicha siljirilishi mumkin.

Guruh bo'lib tuzilgan o'quvchilarni bir-biriga nisbatan tutgan o'rinlarini kuzatishga yo'naltirish kerak. Mashqlar orasidagi dam olish paytida ularning harakatlanishiga va erkin yurishlariga ruxsat berilishi lozim. Ularga «Saflan» degan so'zni aytib, dastlab qanday turgan bo'lsalar, shunday yig'ilishni o'rgatish kerak. Bu doimiy ravishda amalga oshiriladi.

1-bo'lim. O'QUVCHINING HOLATI



1-chizma

Yelkalar va tananing old tomonga aniq to'g'riligi dastlabki va asosiy tamoyildir. Tovonlar bir chiziqda va yopiq; tizzalar to'g'ri; oyoq barmoqlari ochilgan holatda bo'lishi kerak, shunda oyoqlar 45 gradusli burchak hosil qilishi mumkin. Qo'llar yelkadan osongina osilib turadi, panja ochiq, bosh barmoq oldinga va ko'rsatish barmoqqa yaqin, barmoqlar sonlarga yengil tegib turadi; tos biroz orqaga tortilgan, ko'krak esa oldinga siljigan tarzda turadi. Tana to'g'ri va oldinga egilgan ko'rinishda bo'ladi, shuning uchun uning og'irligi asosan oyoqlarning old qismiga tushadi. Bosh tik, lekin orqaga tashlanmagan, iyak biroz tortilgan va ko'zlar oldinga tik qaragan tarzda bo'ladi.

O'quvchilar darsga kirganlarida, ularni yuqorida tavsiflangan holatga joylashtirishga o'rgatiladi.

Eslatma: «Diqqat» buyrug'i aytilganida, o'quvchilar darhol oldingi holatni qabul qilishlari kerak. Hoshiyadagi kursiv bilan bosilgan so'zlar o'qituvchi tomonidan beriladigan buyruqlardir.

2-bo'lim. ERKIN TURISH

O'quvchilarga avval raqamlar bo'yicha erkin turish harakatlarini, so'ngra vaqtni baholashni o'rgatiladi.

<i>Raqamlar bo'yicha erkin turish harakatlari</i>	
<i>Diqqat – Raqamlar bo'yicha erkin turing.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llar tirsakdan ko'tariladi, chap qo'l gavda markazida, bel balandligida, kaft yuqoriga; o'ng qo'l o'ng ko'krak balandligida, chap kaft oldinga; ikkala bosh barmoq barmoqlardan ajralib, tirsaklar yon tomonlarga yaqinlashadi.
<i>Ikki</i>	O'ng qo'l kaftini chap qo'l kaftiga urib, qo'llarni to'liq tushirib, qo'llarni birlashtirib, o'ng qo'lni chap qo'lning orqasiga o'tkaziladi. Bir vaqtning o'zida o'ng oyoqni olti dyuymga orqaga tortiladi va chap tizza biroz bukiladi.

Harakatlar tugagandan so'ng, qo'llar erkin va yengil osilib, barmoqlar yerga qaragan holda, o'ng qo'lning bosh barmog'i chap qo'lning bosh barmog'i va kafti orasida yengil ushlab turiladi; gavda oldinga egilgan holatda, og'irlik o'ng oyoqda bo'lib, butun holat erkin bo'ladi.

<i>Guruh – diqqat</i>	«Diqqat» buyrug'ida e'tibor berilib, 1-mashg'ulotda tavsiflangan holatga sakrab turiladi.
-----------------------	---

Vaqtni baholash	
<i>Diqqat – Erkin, vaqtni baholash</i>	
<i>Guruh – erkin</i>	«Diqqat» buyrug'i aytilganida, raqamlar bo'yicha e'tiborli holatda bajariladigan harakatlarni aniq, lekin tezkor ravishda, orasida hech qanday to'xtashsiz bajariladi.
<i>Guruh – diqqat</i>	Bajarilgan mashqlar qaytariladi.

Agar «Diqqat» buyrug'idan so'ng «Erkin» buyrug'i aytilsa, o'quvchilarga joylarini tark etmasdan tana a'zolarini harakatlantirishga ruxsat beriladi, shunda «Diqqat» buyrug'i berilganda hech kim o'zining qatoridan sezilarli darajada chiqib ketmagan bo'ladi. Agar o'quvchilardan turgan joylarini aniq saqlash talab etilsa, ular chap oyoqlarini harakatlantirmasliklari ogohlantiriladi. «Guruh» buyrug'i aytilganda, o'quvchilar e'tiborli holatda turishmagan bo'lsa, hammalari darhol e'tiborli holatni qabul qilishadi.

3-bo'lim. ORALIQNI SAQLAGAN HOLDA QATORDA SAFLANISH

<i>Ko'zlar – o'ngga</i>	«Ko'zlar – o'ngga yo'nalgan, bosh esa biroz shu tomonga burilgan holatda bo'ladi.
<i>Guruh – qatorga saflan</i>	Har bir o'quvchi o'ng qo'l kaftini yuqoriga cho'zadi, tirnoqlari o'ng tomondagi o'quvchining yelkasiga tegib turadi; bir vaqtning o'zida o'quvchi o'zining joyini oladi. Shunda u o'zidan keyingi ikkinchi o'quvchining yuzi pastki qismini aniq ko'rishiga imkon beradi; u oyoqlari bilan tanasini oldinga yoki orqaga siljitmasin, yelkalarini asl holatida mukammal to'g'ri saqlashga e'tibor beradi.
<i>Ko'zlar – to'g'riga</i>	Bosh va ko'zlar oldinga buriladi, qo'l tushiriladi va diqqat holati 1-mashg'ulotda tasvirlangandek davom ettiriladi.

Chap tomondan qatorga saflanish ham xuddi shu tarzda mashq qilinadi.

4-bo'lim. BURILISHLAR

Burilishlardan o'tishda chap oyoq to'voni hech qachon yerdan uzilmaydi, lekin o'quvchi uni burilishdagi kabi buradi, o'ng oyoq tanani o'ngga burish uchun orqaga tortiladi va chapga burish uchun oldinga olib boriladi; gavda oldinga egiladi, tizzalar to'g'rilanadi. Keyingi barcha harakatlarning birinchisida oyoqni orqaga yoki oldinga siltamasdan olib boriladi, harakat tos-son bo'g'imidan bo'ladi. Shunda tana aylana boshlagunga qadar mutlaqo barqaror saqlanadi.

<i>Guruh – o'ngga</i>	O'ng oyoqning to'pig'ini tezda chap to'pig'iga qarama-qarshi qo'yiladi, yelkalarni oldinga to'g'ri tutiladi.
<i>Ikki</i>	Oyoq barmoqlarini ko'tarib, ikkala tovon bilan o'ngga chorak aylana buriladi va bir-biriga jipslanadi.
<i>Guruh – chapga</i>	O'ng oyoqning to'pig'i tezda chap to'pig'iga qarama-qarshi qo'yiladi, yelkalarni oldinga to'g'ri tutiladi.
<i>Ikki</i>	Oyoq barmoqlarini ko'tarib, ikkala tovon bilan o'ngga chorak aylana buriladi va bir-biriga jipslanadi.
<i>Guruh – o'ngga 180°C burilish</i>	O'ng barmoq uchini chap to'pig'iga qarshi qo'yiladi va yelkalarni oldinga to'g'ri tutiladi.
<i>Ikki</i>	Barmoqlarni ko'tarib va ikkala to'piqni bir-biriga yopishtirib, o'ng tomonga buriladi.

<i>Uch</i>	O'ng oyoqni tezda chap oyoq bilan bir chiziqqa keltiradi.
<i>Guruh – chapga 180 °C burilish</i>	Chap barmoq uchi o'ng to'piqqa qarshi qo'yiladi, yelkalar oldinga to'g'ri tutiladi.
<i>Ikki</i>	Barmoqlarni ko'tarib va ikkala to'piqni bir-biriga yopishtirib, chap tomonga buriladi.
<i>Uch</i>	Chap oyoq tezda o'ng oyoq bilan bir chiziqqa keltiriladi.
<i>Guruh – o'ng (chap) tomon bilan 90 darajada burilish</i>	O'ng (chap) oyoq bir dyuym orqaga tortiladi (yoki oldinga suriladi).
<i>Ikki</i>	Barmoqlarni ko'tarib va ikkala to'piqni bir-biriga yopishtirib, o'ng tomonga (yoki chap tomonga) 90 daraja buriladi.
<i>Guruh o'ng (chap)ga 270 °C burilish</i> <i>Ikki</i> <i>Uch</i>	O'ng (chap) oyoqni qo'llab, o'ng (chap) tomonga 270 °C daraja buriladi.
<i>Guruh – oldinga</i>	Yuqoridagi har qanday burilishlardan so'ng, «Oldinga» buyrug'i aytilishi mumkin. bu esa barcha o'quvchilarga iloji boricha aniq tarzda o'zlarining avvalgi old tomonlariga burilishni anglatadi. Agar o'quvchi avval orqasiga burilgan bo'lsa, u doim o'ng tomonga burilib, so'ng oldiga qaraydi. Ammo agar u o'ng tomon bilan 270 °C darajada burilish qilgan bo'lsa, chap tomon bilan 270 °C darajada burilib oldiga qaraydi.

Mashg'ulotlar oralig'idagi vaqtlar bilan bajariladigan guruh mashg'ulotlarida burilishlar har doim raqamlar bo'yicha amalga oshiriladi, faqat «Oldinga» buyrug'i berilganda, o'quvchi vaqtni o'zi baholaydi, bunday vaziyatda har bir harakatdan so'ng, sekin qadamda to'xtalish bo'ladi.

5-bo'lim. CHO'ZILISH MASHQLARI

Yelka kuraklarini ochish va mushaklarini bo'shashtiruvchi mashqlarda, o'quvchi quyidagi cho'zilish mashqlarini bajarishadi. Oraliq masofani saqlagan holda turgan o'quvchilar, ushbu mashqlarni boshlashdan oldin, o'ng tomonga yarimburilish qiladi.

Diqqat – Birinchi mashq:

<i>Bir</i>	Qo'llarni oldinga to'liq cho'zib, so'ngra tanaga yaqin qilib olib kelinadi. Tirsaklar pastga qarab va qo'llar tanaga yaqin turadi. Keyin, qo'llarni bosh ustidan ² aylantirib ko'tariladi. Barmoqlar bir-biriga tegib, pastga qaragan holatda, bosh kiyimga (shapka yoki qalpoq) tegish uchun ko'tariladi. Yelkalar ko'tarilmasdan pastda saqlanadi.
<i>Ikki</i>	Qo'llarni yuqoriga tezda ko'tarib, to'liq cho'ziladi va panjalar ichkariga qaragan bo'ladi. So'ng, qo'llarni diagonal tarzda orqaga tortiladi va asta-sekin ularni «Diqqat» holatiga qaytariladi, shu bilan birga bo'yin va ko'krakni iloji boricha yuqoriga ko'tarishga harakat qilinadi.
<i>Uch</i>	Qo'llarni bilaklardan egmasdan, yelkalar orqaga bosilgan holda, yonlardan tashqariga ko'tariladi. Qo'llar bosh ustida birlashgunga qadar davom etiladi, panjalar oldinga qarab, barmoqlar yuqoriga qarab, bosh barmoqlar esa bir-biriga yopishadi, chap qo'l oldinda turadi.
<i>To'rt</i>	Qo'llar oyoqlarga tegishi uchun tanani pastga egib, qo'llar va tizza to'g'ri holatda saqlanadi. Biroz to'xtaganingizdan so'ng, tanani asta-sekin ko'tarib, qo'llarni yonlarga olib boriladi va «Diqqat» holatiga qaytariladi.

Eslatma: Yuqoridagi harakatlar sekin bajarilishi kerak, shunda mushaklar to'liq kuch bilan ishlashi ta'minlanadi.

Diqqat – Ikkinchi mashq:

<i>Bir</i>	Qo'llar tananing oldida, to'liq cho'zilgan holda, og'iz darajasiga mos ravishda ko'tariladi. Panjalar bir-biriga shovqinsiz tegib, bosh barmoqlar ko'rsatkich barmoqlariga yaqin bo'ladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar tezda ajratib, orqaga qarab, pastga tomon tashlaandi. Bu harakatda qo'llar to'liq cho'zilgan holda, orqaga va pastga qaraydi. Shu vaqtning o'zida, tanani oldingi oyoqlariga ko'taring. Bunda, demak, og'irlikni oldingi oyoqlarga o'tkazib, pastki tana qismini biroz ko'tariladi.
<i>Bir</i> <i>Ikki</i>	Qo'llarni oldinga olib kelib, yuqorida tasvirlangan holatga keltiriladi va davom ettiriladi.
<i>Uch</i>	Tezda «Diqqat» holatiga qaytiladi.

Ushbu mashqda, ikkinchi harakatni «Bir», «Ikki» so'zlarini takrorlamasdan davom ettirish mumkin, buning o'rniga «Harakatni davom ettiring» deb buyruq beriladi. Shunda, guruh o'quvchilari o'ng tomondagi o'quvchidan vaqtni olishadi. «Barqaror» so'zi aytilganda, o'quvchilar ikkinchi holatda qoladilar va «Uch» buyrug'i aytilganda, ular «Diqqat» holatiga qaytadilar.

² Qo'llarni ko'tarishda, ular kiyimlarga tegib, yuzga yaqin o'tkazilishi kerak.

Diqqat – Uchinchi mashq:

Uchinchi mashqni boshlashdan oldin, o'quvchilar guruhi avval ikkinchi yarimburiilishni o'ng tomonga (ya'ni 180 daraja) bajarishadi.

<i>Bir</i>	Qo'llarni mushtlab, tananing oldida, to'liq cho'zilgan holda ko'tariladi. Qo'llar og'iz darajasiga teng bo'lib, bosh barmoqlar yuqoriga qarab, bir-biriga tegib turadi.
<i>Ikki</i>	Qo'llarni tezda ajratgan holda orqaga, yelkalar bilan bir qatorda tashlanadi. Qo'llarning orqa tomoni pastga qarab turadi.
<i>Uch</i>	Qo'llarni iloji boricha tezda oldindan orqaga qarab aylantiriladi.
<i>Barqaror holatda turilsin</i>	O'quvchilar ikkinchi holatga qaytadi.
<i>To'rt</i>	Qo'llarni tezda «Diqqat» holatiga tushiriladi.

6-bo'lim. SALOMLASHISH TARTIBI

O'quvchilar salomlashish harakatida, avval raqamlar yordamida, keyin esa vaqtni o'zlari baholab bajarish bo'yicha mashq qiladilar. O'ng qo'l bilan salomlashish uchun o'quvchilar o'ng tomonga buriladi. Chap qo'l bilan salomlashish uchun esa chap tomonga burilishadi.

Eslatma: O'ng qo'l bilan salomlashish, raqamlar yordamida bajariladi.

<i>Bir</i>	O'ng qo'lni tezda, lekin aylanma harakat bilan boshga olib boriladi, kaftni oldinga, old barmoqning uchini o'ng ko'zdan bir dyuym yuqoriga, bosh barmoqni old barmoqqa yaqinlashtiriladi; tirsak chiziqda va yelka bilan bir qatorda bo'lib, deyarli to'g'ri burchakda bo'ladi. Shu bilan birga, boshni biroz chap tomonga buriladi.
<i>Ikki</i>	Qo'lni yon tomonga tushirib va bosh oldinga qaratiladi.

Eslatma: O'quvchilar o'ng qo'l bilan salomlashish harakatlarini to'g'ri bajarish uchun vaqtni baholab, keyin harakatni amalga oshiradilar.

<i>Guruh – o'ng qo'l bilan salomlashish</i>	«Salomlashish» bo'yicha birinchi va ikkinchi boblarda tasvirlangan ikki harakat bajariladi.
---	---

O'quvchilarga chap qo'li bilan salomlashishni ham xuddi shunday tarzda o'rgatiladi. Agar o'quvchi o'z joyida turib, uning o'qituvchisi o'tayotgan bo'lsa, u o'qituvchisiga qarab buriladi, «Diqqat» holatiga o'tadi va o'qituvchisi unga to'rt

qadam yaqinlashganda salom beradi. Salom berishdan so'ng, qo'lni pastga tushiradi va bir necha qadam (olti qadam) tez yurishda kutadi. Agar o'quvchi o'tirgan bo'lsa, u turib, «Diqqat» holatiga o'tadi va salom beradi. Agar o'quvchi ofitserga murojaat qilsa, u salom beradi, birinchi va ikkinchi harakatlar orasida sekin vaqtda tanaffus qiladi va ofitserdan ikki qadam uzoqlikda to'xtaydi.

O'quvchilar safda yurish paytida, ofitserlarini o'tib ketayotganida, o'quvchilar salom berishni boshlashlari kerak, bu salomni ofitserga yetib kelishidan to'rt qadam oldin boshlaydilar. Agar o'quvchi ofitserni o'zi yakka holda o'tib ketayotgan bo'lsa, u salomni ofitserga to'rtinchi qadamda beradi va qo'lni pastga tushirishni ofitserdan o'tib ketgandan keyin to'rtinchi qadamda amalga oshiradi. O'quvchilar, ikki yoki uch kishi birga yurib, mashq maydonining atrofida harakat qilayotganda, salom berish nuqtalari bo'lgan joylarda salom berishni mashq qilishadi. Agar bir nechta o'quvchi birgalikda yurayotgan bo'lsa, salom berish vaqtini nuqtaga eng yaqin bo'lgan o'quvchi belgilaydi.

SAFLANISH

7-bo'lim. QADAM UZUNLIGI¹

Safda sekin va tez qadam tashlashda qadam uzunligi 30 dyuym (inch) bo'ladi. Safda yurish paytida qadam kengligi 33 dyuym bo'ladi, bu kengroq va tezroq harakat qilishda qo'llaniladi. Aksincha, safda yurish paytida qadamni qisqartirishda qadam uzunligi 21 dyuym bo'ladi, bu qadamni qisqartirish va tezroq harakat qilishda qo'llaniladi. Safda qo'shqadam bilan tez yurish qadam uzunligi 33 dyuym bo'ladi, ya'ni tez yurish holatida kengroq va tezroq qadamlar qo'llaniladi. Yon tomonga qadam tashlashda qadam uzunligi 12 dyuym bo'ladi.

Eslatma: Agar o'quvchi yon qadamni boshqa o'quvchining oldidan yoki orqasidan o'tish uchun qilsa, masalan, to'rt qatorli tartibni shakllantirishda, qadam uzunligi 24 dyuym bo'ladi.

8-bo'lim. YURISH TEMPI²

Sekin yurishda bir daqiqada 75 qadam tashlanadi. Tez yurishda bir daqiqada 116 qadam tashlanadi, bu esa 96 yard 2 futga teng bo'ladi. Bir soatda 3 mil 520 yard masofa bosiladi. Qo'shqadam bilan tez yurishda bir daqiqada 165 qadam tashlanadi, bu esa 151 yard 9 dyuymga teng bo'ladi. Bir soatda 5 mil 275 yard masofa bosiladi.

¹ O'g'il bolalar uchun qadam uzunligi guruhning yoshiga qarab belgilanishi kerak. O'quvchilarga to'liq qadam tashlashlari, lekin bu harakatda haddan tashqari kuch sarflamasliklari kerakligi ta'kidlanishi lozim.

² Yuqorida aytib o'tilgan maydon hajmi 30 dyuymli qadamlar uchun mo'ljallangan, o'g'il bolalar uchun esa, albatta, yosh yoki o'lchamga ko'ra kamroq bo'ladi.

9-bo'lim. BARABAN, METRONOM VA QADAM O'LGACHICH

Har bir o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi doimo baraban va tayoqchadan foydalanilgan tartibda yurishga o'rgatiladi. Baraban, dastavval, o'quvchilar to'xtab turgan vaqtda, keyin esa, o'qtin-o'qtin harakatga kelgan vaqtda chalinib turadi. Baraban to'xtab urib turganda, o'quvchilar butun e'tiborlarini yurish tempiga qaratadilar; u to'xtaganda, yo'riqchi darhol guruhlarni harakatga keltiradi. Vaqt to'g'ri belgilanganligini aniqlash uchun mayatnik yoki metronomdan foydalaniladi. Buning uchun turli xil mayatniklar yasalgan. Qo'lda mayatnik bo'lmaganda, metallardan yasalgan sharsimon sharni ipga osish orqali osongina mayatnik yasash mumkin. Ularning osilish nuqtasidan to'pning markaziga qadar o'lgangan miqdori yurishning turli darajalari uchun quyidagicha bo'lishi kerak.

	Dyuym	Yuzdan birlar
Sekin qadam	24	26
Tez qadam	10	15
Qo'shqadam	5	18

Shu tarzda joylashtirilgan metronom kerakli aniq vaqtda siljiydi. Ipning cho'zilishi mumkinligi sababli, uning to'g'riligi tez-tez soatga qarab tekshiriladi.

Yurishdagi qadam uzunligi qadamo'lgachich yordamida to'g'rilanadi, uning aniqligi esa vaqti-vaqti bilan o'lchovlar orqali tekshiriladi.

10-bo'lim. SAFDA YURISHDAGI HOLAT

Yurishda, o'quvchi bosh va gavda holatini 1-bo'limda belgilanganidek saqlaydi. U oyoqlarida yaxshi muvozanatni ushlab turishi lozim. Qo'llar yon tomonida barqaror bo'lib turadi; qo'lning oyoq harakatiga qo'shib ketmasligiga e'tibor qaratiladi. Oyoq harakati sonning harakatidan boshlanib, erkin va tabiiy bajariladi. Ikkala tizzasi ham to'g'ri bo'lishi lozim, faqat oyoq orqadan oldinga olib borilganda, oyoqni yerga tekkizish uchun tizza biroz egiladi. Oyoq to'g'ridan to'g'ri oldinga olib boriladi va orqaga tortilmasdan, tanani silkimasdan yumuq tarzda yerga qo'yiladi. Barmoqlar, to'xtagan holatda tashqariga buriladi.

Garchand bir necha tarbiyalanuvchini guruhga birlashtirib, oraliqda mashq qildirish mumkin bo'lsa-da, ular xuddi alohida-alohida ta'lim olayotgandek, mustaqil va aniq harakat qiladilar. Har bir o'quvchiga to'g'ri chiziq bo'ylab yurishni va guruhning boshqa o'quvchilariga e'tibor bermasdan, uzunlik va ritm bo'yicha to'g'ri qadam tashlash o'rgatiladi.

Guruhni harakatga keltirishdan oldin o'qituvchi tarbiyalanuvchilarning alohida-alohida va bir-biri bilan to'g'ri chiziqda bo'lishiga e'tibor beradi. Har bir o'quvchiga oldinga qarab to'g'ri chiziqni olishni o'rgatilib, bunda u dastlab oyoqlari orasidan tanasining markaziga qaraydi, so'ngra ko'zlarini taxminan 100 yard masofada to'g'ridan to'g'ri oyoqlarigacha bo'lgan yerdagi biror narsaga qaratadi; keyin u xuddi shu to'g'ri chiziqdagi yaqinroq nuqtani, masalan, toshni, bir tutam o'tni yoki boshqa tasodifiy narsani taxminan 50 yard masofada kuzatadi.

11-bo'lim. SAFDA QADAM TASHLASHDA MUVOZANATNI SAQLASH

Qadam tashlashda muvozanatni saqlashning maqsadi – o'quvchini oyoqlarini erkin harakatlantirishga o'rgatish, shu bilan birga yelkalarining mukammal tekisligi va tananing barqarorligini saqlab qolish. Bu maqsadga erishish uchun barcha kuchlarni sarflash zarur, chunki bu to'g'ri yurishning poydevori hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchining tanasini oldinga qarab yaxshi holatda saqlashiga va yelkalarining to'liq to'g'ri bo'lishiga e'tibor beriladi.

1. Oldinga siljimasdan muvozanatni saqlash

<i>Diqqat – Safda qadam tashlashda muvozanatni saqlash chap oyoqdan boshlanadi:</i>	
<i>Guruh – oldinga</i>	Chap oyoq tizzadan sal bukilib, yerdan ko'tariladi va siltanmasdan oldinga ohista olib boriladi, oyoq oldinga olib borilayotganda tizza asta-sekin bo'shashtiriladi; oyoq to'xtatilgandagi kabi burchak ostida buriladi, kaft yerga parallel, tovon o'ng oyoq uchi chizig'idan oldinda turadi.
<i>Guruh – orqaga</i>	Gavda barqaror holatda bo'lganda aytiladigan «Orqaga» buyrug'iga chap oyoq ohista orqaga tortiladi, siltanishsiz, oyoq uchi o'ng oyoq tovonini bilan bir chiziqda, yerdan uzilgan holatda bo'ladi; chap oyoq tizzasi biroz bukiladi.
<i>Guruh – oldinga orqaga</i>	Barqaror holatda «Old» va «Orqa» buyrug'i bir necha marta takrorlanadi va harakatlar yuqorida tavsiflanganidek bajarildi.
<i>Guruh – to'xta</i>	Bu buyruq har doim harakatdagi oyoq orqada bo'lganda beriladi, bu oyoq boshqa oyoq bilan bir chiziqqa keltiriladi.

O'qituvchi keyinroq o'quvchini o'ng oyoqni oldinga va orqaga olib borgan holatda, chap oyoqda muvozanatni saqlashga o'rgatadi.

2. Oldinga siljigan holda muvozanatni saqlash

<i>Diqqat – Safda qadam tashlashda muvozanatni saqlash «Olg'a» so'zi bilan boshlanadi:</i>	
<i>Guruh – oldinga</i>	Birinchi qismda tavsiflanganidek chap oyoq oldinga olib boriladi.
<i>Guruh – olg'a</i>	O'quvchilar yuqoridagi holatda barqaror bo'lgandan so'ng, «Olg'a» buyrug'i aytiladi, shu paytda chap oyoq yerga qo'yiladi va to'piq orasidagi masofa 30 dyuym bo'ladi, barmoqlar to'xtashda qanday burchakda bo'lsa, shunday holatda saqlanadi; o'ng oyoq darhol ko'tariladi va orqaga cho'zilgan holatda ushlab turiladi, oyoq barmog'i chap oyoqning to'pig'i bilan bir chiziqqa joylashgan, o'ng tizza esa biroz bukilgan holatda bo'ladi. Diqqat bilan e'tibor berish lozimki, barmoqlar har doim to'g'ri burchakda bo'ladi, tananing oyoqqa hamroh bo'lishi va to'piq ichki qismi o'quvchi harakatlanayotgan chiziqda bo'ladi. Gavda to'g'ri holatda oldinga tashlangan holda saqlanadi. Bosh tik holatda bo'lib, o'ng yoki chapga qarab burilmaydi.
<i>Guruh – oldinga</i>	O'ng oyoq oldinga olib boriladi va shu tarzda navbat bilan davom etadi.
<i>Guruh – to'xta</i>	Buyruq har doim harakatdagi oyoq oldinga kelganda berilishi kerak, o'sha oyoq o'z qadamini yakunlaydi va orqa oyoq unga mos ravishda oldinga olib kelinadi.

12-bo'lim. SAFDA SEKIN YURISH

Ushbu mashqning uchta eng muhim obyekti – yurish tempi, qadam uzunligi va yo'nalishdir.

<i>Safda sekin yurish</i>	Barabanning ovozi berilganidan so'ng, «Safda baravar yurish» buyrug'i aytilganda, 10-bo'limda ko'rsatilganidek chap oyoq 30 dyuym oldinga olib boriladi, keyin o'ng oyoq ham xuddi shunday tarzda oldinga olib boriladi va shu tarzda navbat bilan davom etadi.
---------------------------	---

Katta tezlikdagi qadamlarda aniqlikka erishish uchun zarur tayyorgarlik sifatida o'quvchini bu qadamga puxta o'rgatish kerak.

13-bo'lim. SAFDA TO'XTASH

<i>Guruh – to'xta</i>	Harakatdagi oyoq o'z qadamini yakunlaydi va orqa oyoq unga mos ravishda olib kelinadi.
-----------------------	--

Umumiy qoidaga ko'ra, «To'xta» buyrug'idan so'ng, «Qator» buyrug'i berilmasa o'quvchilar qanday holatda bo'lishidan qat'i nazar, mutlaqo barqaror turadilar.

14-bo'lim. SAFDA QADAM BOSISH

<i>Guruh – qadam bos</i>	Sekin yurganda, «Qadam bos» buyrug'idan so'ng, o'quvchi biroz oldinga engashib, yurish tempini o'zgartirmasdan 33 dyuymgacha qadam tashlaydi.
--------------------------	---

Ushbu qadam, yurish tempini o'zgartirmasdan tezlikni biroz oshirish kerak bo'lganda qo'llaniladi. «Sekin qadam bos» so'zi aytilganda, 30 dyuymli¹ qadam tiklanadi.

15-bo'lim. SAFDA SEKIN QADAM BOSISH

<i>Guruh – sekin qadam bos</i>	Oldinga kelayotgan oyoq o'z qadamini yakunlaydi, so'ngra har bir o'quvchi 21 dyuymli ² qadamlar tashlaydi, «Olg'a» so'zi aytilganda esa, odatdagi 30 dyuymli qadam tiklanadi.
--------------------------------	--

Ushbu qadam, tezlikni biroz sekinlashtirish kerak bo'lganda qo'llaniladi.

16-bo'lim. SAFDA VAQTNI BAHOLASH

<i>Vaqtini baholash</i>	Oldinga kelayotgan oyoq o'z qadamini yakunlaydi, shundan so'ng yurish tempi davom ettiriladi, ammo harakatlanmasdan, har bir oyoqni navbat bilan taxminan 3 dyuym yuqoriga ko'tarib, gavgani barqaror holda saqlaydi; «Olg'a» so'zi aytilganda esa, odatdagi 30 dyuymli ³ qadam tiklanadi.
-------------------------	---

To'xtash holatidan keyin, buyruq so'zi «Sekin, Vaqtini baholash» bo'ladi.

¹ 7-bo'limga qarang: O'g'il bolalar qadamlarini taxminan 3 marta uzaytiradilar.

² O'g'il bolalar odatdagi qadamlaridan taxminan 8 dyuym qisqaroq qadam tashlaydilar.

³ O'g'il bolalar o'zlarining dastlabki qadam uzunliklarini tiklaydilar.

17-bo'lim. SAFDA ORQAGA QADAM TASHLASH

<i>Guruh – orqaga qadam bos Sekin qadam bos Guruh – to'xta</i>	Orqaga qadam tashlashda, qadam uzunligi 30 dyuym ⁴ bo'ladi. O'quvchilarga to'g'ri orqaga harakat qilish, yelkalarini oldinga qarab saqlash va tanasini tik tutish o'rgatiladi. Oldingi oyoq boshqa oyoq bilan to'g'ri chiziqqa keltiriladi.
--	--

Har safar faqat bir necha qadam tashlash kerak bo'ladi.

18-bo'lim. SAFDA QADAM ALMASHTIRISH

<i>Qadam almashtirish</i>	Yurishda oyoqni almashish uchun, oldinga kelayotgan oyoq o'z qadamini yakunlaydi, so'ngra orqa oyoqning to'voni tezda oldingi oyoqning to'voni bilan birlashtiriladi, bu esa darhol boshqa qadamni oldinga qo'yishga olib keladi, shunda yurish tempi yo'qolmaydi; aslida, bir oyoq bilan ketma-ket ikki qadam tashlanadi.
-------------------------------	--

Bu guruhning biron-bir qismi yoki bitta o'quvchi boshqalardan farqli oyoq bilan qadam tashlaganida talab qilinadi.

19-bo'lim. SAFDA SHAXDAM QADAM BOSISH

Sekin yurish tempi o'quvchiga juda yaxshi tanish bo'lgach, uni tez yurishga o'rgatiladi.

<i>Bir</i>	Biroz yugurib olinadi va yugurish oxirida o'ng (yoki chap) oyoq yerga tushayotganida, tirsaklar bukilib, qo'llar bosh uzra ko'tariladi. Ko'krak oldinga cho'zilgan, yelka orqaga tashlangan, gavda biroz orqaga egilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'ng (yoki chap) oyoqning barmoq uchidan ozgina orqaga sakraladi, oyoq deyarli yerga tegmaydi.
<i>Ikki</i>	Shu zahoti gavda va qo'llar oldinga olib kelinadi va egilib boshlanadi, ikkala oyoq qo'llarga yaqin joylashtirilib sakraladi, tirsaklar yanada ko'proq bukilib, bosh yerga yaqinlashtiriladi.
<i>Uch</i>	Mashqlar birinchi mashqdagi 4-harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

4-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	Mashqlar VI guruh, to'rtinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Mashqlar VI guruh, to'rtinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Uch</i>	Tizzalar to'g'irlanib, ular yerga tegmasdan oldinga tortiladi va old tomonga qo'yiladi, tovonlar birgalikda bo'lishi kerak.
<i>To'rt</i>	Mashqlar VI guruh, to'rtinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Besh</i>	Oyoqlar orqaga suriladi va tirsaklar asta-sekin bukiladi, old qo'llar va gavda yerga tushiriladi, yuz deyarli yerga tegishi kerak.
<i>Olti</i>	Gavda oldinga tortiladi va tirsaklar to'g'irlanib, «To'rtinchi» holatga qaytiladi.
<i>Yetti</i>	Gavdani oldinga tortishni davom etib, asta-sekin qo'llar yon tomonlarga cho'ziladi, ular deyarli belga qarama-qarshi holatga keltiriladi.
<i>Sakkiz</i>	Mashqlar VI guruh, to'rtinchi mashqdagi «Beshinchi» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'qqiz</i>	Mashqlar «Beshinchi» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'n</i>	Tananing old qismi oyoqlarga suyanib orqaga siljiriladi, barmoqlar asta-sekin oldinga qarab buriladi va qo'llar yelkalarga nisbatan biroz tashqarida va bir chiziqli joylashadi.
<i>O'n bir</i>	Mashqlar VI guruh, to'rtinchi mashqdagi «Beshinchi» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'n ikki</i>	Orqaga dumalab, tezda oyoqqa turish uchun III, IV yoki V guruhning 4-mashqi bajariladi.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'lim qarang.

IX GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Sinf – erkin tur</i>	Dastlabki guruh mashqlariga qarang.

1-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, ammo yugurishsiz, chap oyoq oldinda bo'lishi kerak.

2-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, lekin yugurishsiz, bunda o'ng oyoq oldinda bo'lishi kerak.

3-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 3-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, ammo yugurishsiz. Ikkala oyoq bir chiziqda bo'lishi kerak. Qo'llar ko'tarilganida, ikkala oyoq bilan sakrash kerak, ular deyarli yerga tegmaydi. Gavda va qo'llar oldinga egilganda, ikkala oyoq bilan sakrash orqali harakat davom ettiriladi.

4-mashq

Holat: II guruh, 4-mashqqa qarang.

Bu mashq III guruh, 4-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat oyoqqa turishga harakat qilish o'rniga, oyoqlar yerga tegishi bilan darhol qo'llar va yelkalarga tayanib sakrash kerak. Keyin qo'llar va yelkalarga tayanib, oyoqlar bilan orqaga sakrab, «Diqqat» holatiga qaytiladi.


Agar bu mashq «Diqqat» holatiga qaytishdan oldin 3–4 marta takrorlansa, juda yaxshi mashq bo'ladi.

<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'linga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'lim qarang.

X GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Sinf – erkin</i>	Dastlabki va VIII guruh mashqlariga qarang.

1-mashq



18-chizma

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, lekin bu safar bosh yerga tegmaydi.

2-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat bosh yerga tegmaydi.

3-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq VIII guruh, 3-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat bosh yerga tegmaydi.

4-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	Chap oyoq va qo'l chap tomonga cho'ziladi, qo'l kafti yerga qaratiladi, bosh barmoq chapga yo'naltiriladi. Chap yelka pastga tushirilgan, o'ng yelka esa ko'tarilgan bo'lishi kerak. O'ng qo'l bosh ustiga ko'tarilib, tirsakdan biroz bukilgan holda turadi. Qo'l kafti chap tomonga qaragan, bosh barmoq esa orqaga yo'nalgan bo'ladi.
<i>Ikki</i>	Chap tomondan qo'llarga tayanib sakrab tushiladi, oyoqlar yuqoriga va chap tomonga ko'tarilib, qo'llardan sakrab oyoqlar yerga tushiriladi.
<i>Uch</i>	«Diqqat» holatiga qaytiladi. Bu mashqlar ketma-ket bir necha marta takrorlanishi mumkin, tekis chiziq bo'ylab chap tomonga yoki doira bo'ylab bajariladi.
<i>Sinf – o'ng-ga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'lim qarang.

XI GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Sinf – erkin</i>	Dastlabki guruh mashqlariga qarang.

1-mashq

«Diqqat» holati.

Ushbu mashq X guruhning 1-mashqi bilan bir xil tarzda bajariladi, ammo yugurishsiz, chap oyoq oldinda bo'ladi; bu mashq bir necha marta ketma-ket oltinga to'g'ri yo'nalishda bajarilishi mumkin.

2-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq ham X guruhning 2-mashqi bilan bir xil tarzda bajariladi, lekin yugurishsiz, o'ng oyoq oldinda bo'ladi; bu mashq bir necha marta ketma-ket oldinga to'g'ri yo'nalishda bajarilishi mumkin.

3-mashq

«Diqqat» holati.

Bu mashq ham X guruhning 3-mashqi bilan bir xil tarzda bajariladi, lekin yugurishsiz, ikkala oyoq ham bir chiziqda bo'ladi; qo'llar yuqoriga ko'tarilganda, ikkala oyoqda sakrab, deyarli yer bilan aloqa uzilib, oyoqlarning old qismi bilan tushiladi, tananing va qo'llarning harakati darhol oldinga kelib, egilib, ikkala oyoqdan sakrab davom ettiriladi va hokazo.

4-mashq

«Diqqat» holati.

Ushbu mashq X guruhning 4-mashqi bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat matnda uchraydigan «o'ng» va «chap» so'zlari o'zaro almashadi.

<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti, 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti, 51-bo'limga qarang.

XII GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Sinf – erkin</i>	Dastlabki guruh mashqlariga qarang.

1-mashq


«Diqqat» holati.

<i>Bir</i>	VII guruh, 2-mashq bilan bir xil.
<i>Ikki</i>	VII guruh, 2-mashq bilan bir xil.
<i>Uch</i>	Qo'llar bilan oldinga yuriladi.
<i>To'rt</i>	Mashqlar VII guruh, 2-mashqining «Uchinchi» qismiga o'xshash.

2-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Mashqlar VII guruh, uchinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Mashqlar VII guruh, uchinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Uch</i>	Orqaga qarab qo'llarda yuriladi.
<i>To'rt</i>	Oyoqlarning muvozanatdan chiqishiga ruxsat beriladi va qo'llardan oyoqlarga sakrab, «Diqqat» holatiga kelinadi.

3-mashq



19-chizma

<i>«Diqqat» holati – devorga orqa bilan turish, devordan 24 dyuym (taxminan 61 cm) uzoqlikda, bu masofa o'quvchining hajmiga qarab kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llarning orqa tomoni oldinga buriladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llarni oldinga tez harakatlantirib, tirsaklarni bukib, qo'llar bosh ustiga olib kelinadi. Qo'llarning orqa tomoni pastga, barmoqlar esa orqaga qaraydi.
<i>Uch</i>	Orqaga egilib, qo'llar devorga tekkiziladi (19-chizmaga qarang).

<i>To'rt</i>	Egilish davom ettirilib, devor bo'ylab harakatlangan qo'llar yerga tushiriladi. O'quvchi avval ozgina egilishi, so'ngra yana tik holatga qaytishi kerak. Tajriba ortib borgani sayin, egilish chuqurlashib bora-di va oxirida qo'llari yerga yetguncha oson egiladi.
<i>Besh</i>	Qo'llar yerdan devorga olib kelinadi va asta-sekin yuqoriga tana bilan birga ko'tariladi, qo'llar bosh ustida va devorga tegib turishi kerak.
<i>Olti</i>	Qo'llardan kuch olib sakraladi va qo'llar yonga tushirilib, «Diqqat» holatiga qaytiladi.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.

XIII GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Sinf – erkin</i>	Dastlabki guruh mashqlariga qarang.

Ushbu guruhdagi mashqlarning turli xil o'zgarishlari va kombinatsiyalari mavjud. Ushbu mashqlarni o'rgangan har qanday shaxs o'zining ozgina zukkoligi bilan ularni osongina o'zgartirib bajara olishi mumkin.

1-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	Chap oyoq o'ng oyoqning oldiga olib o'tiladi. Chap tizzaning ichki qismi o'ng tizzaning tashqi tomoniga tegib turadi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlarning old qismi ko'tariladi va tovonlarda aylanib, butun doira yasala-di. Tana barqaror turishi, o'ng yelka esa harakatni boshlashi kerak.
<i>Uch</i>	Oyoqlarning old qismi yerga qo'yiladi. Endi chap tizzaning tashqi tomoni o'ng tizzaning ichki tomoniga tegib turadi.
<i>To'rt</i>	Oyoqlarning old qismi ko'tariladi va tovonlarda aylanilib, yana to'liq doi-ra yasala-di. Bu safar chap yelka harakatni boshlaydi.
<i>Besh</i>	Oyoqlarning old qismi yerga qo'yiladi. Endi o'quvchi birinchi holatga qaytgan bo'lishi kerak.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilishi bilan o'quvchi keyingi mashqdagi bosh-lang'ich holatga o'tadi.

2-mashq

«Diqqat» holati.

Ushbu mashq 1-mashq bilan bir xil bajariladi, faqat matnda uchragan joylarda «chap» soʻzi oʻrniga «oʻng» va aksincha almashtiriladi.

3-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	1-mashq bilan bir xil bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tovonlar koʻtariladi va oyoqlarning old qismida aylanilib, butun doira hosil qilinadi. Oʻng yelka oldinda boʻlishi kerak.
<i>Uch</i>	Tovonlar yerga qoʻyiladi. Endi chap tizzaning tashqi tomoni oʻng tizzaning ichki tomoniga tegib turadi.
<i>Toʻrt</i>	«Ikkinchi» holatda aytilgan harakat takrorlanadi, faqat bu safar chap yelka oldinda boʻladi.
<i>Besh</i>	Tovonlar yerga qoʻyiladi.
<i>Oʻzgarish</i>	1-mashqqa qarang.

4-mashq

«Diqqat» holati.

Ushbu mashq 3-mashq bilan bir xil bajariladi, faqat matnda uchragan joylarda «oʻng» soʻzi oʻrniga «chap» va aksincha almashtiriladi.

5-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	Toʻgʻri sakrab, harakat oʻng yelkadan boshlanadi. Oyoqlar yerdan koʻtarilgan zahoti toʻliq doira chiziladi va bunda imkon qadar oldingi turgan joyga tushish kerak.

Birinchi bosqichda faqat toʻliq aylanishning uchdan ikki qismi mashq qilinadi.

6-mashq

«Diqqat» holati.	
Ushbu mashq 5-mashq bilan bir xil bajariladi, faqat bunda sakrash vaqtida chap yelka oldinga buriladi.	
<i>Sinf – oʻngga buril</i>	Guruh mashgʻuloti 4-boʻlimga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashgʻuloti 51-boʻlim qarang.

XIV GURUH

Sinf – saflan	1-guruh mashqlariga qarang.
Sinf – erkin	Dastlabki va VIII guruh mashqlariga qarang.

1-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i> <i>E'tibor bering, chap oyoq boshlang'ich harakat uchun asosiy oyoq bo'lishi kerak.</i>	
<i>Bir</i>	Mashqlar VIII guruh, birinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Mashqlar VIII guruh, birinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Uch</i>	O'ng oyoqdan qo'llarga sakrab o'tiladi. Qo'llar tekis holatda, tirsaklar esa biroz bukilgan holatda bo'ladi.
<i>To'rt</i>	Oyoqlar yuqoriga ko'tarilib, tizzalar tekis va tananing shakli yaxshi egilgan holatda bo'lishi kerak. Qo'llardan oyoqlarga tushayotganda, tik holatda turishi kerak.

2-mashq

«Diqqat» holati.

E'tibor bering, bu safar boshlang'ich harakat uchun asosiy oyoq o'ng oyoq bo'lishi kerak.

Bu mashq 1-mashq bilan bir xil bajariladi, faqat matnda uchragan joylarda «o'ng oyoq» o'rniga «chap oyoq» va aksincha almashtiriladi.

3-mashq

<i>Bir</i>	Mashqlar VIII guruh, uchinchi mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tana va qo'llar oldinga tez harakatlantirilib egiladi, so'ng ikkala oyoqdan qo'llarga tayanib sakraladi. Qo'llar tekis, tirsaklar esa biroz buki-lishi kerak.
<i>Uch</i>	Mashqlar 1-mashqning «To'rtinchi» harakati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

GIMNASTIKA

YENGIL GANTEL BILAN BAJARILADIGAN MASHQLARI TO'PLAMI¹

Sinf – yig'il	Shakllanish usullariga qarang.
---------------	--------------------------------


<i>«Diqqat» holati. Gantel ushlanadi.</i>	
<i>Salomla-shish</i>	«Salom berish» buyrug'ida iyak pastga tushiriladi va tana biroz egiladi. Shu bilan birga, belning past qismi orqaga tortiladi, o'ng oyoq chap to'piqdan taxminan bir dyuym (2,5 cm) uzoqlikda, chap oyoq tovonining orqasida joylashguncha orqaga suriladi. Tananing vazni asosan o'ng oyoqda bo'ladi, chap oyoq esa yerdan ko'tarilmagan holda tekis turadi, tizzalar butunlay tekis bo'lishi lozim. Shu bilan birga tirsaklar bukilgan holda, o'ng qo'ldagi gantel ko'krak oldiga ko'tariladi, uning yuqori qismi chap yelkaga tegib turishi kerak. Chap qo'ldagi gantel esa orqaga ko'tariladi va orqada yelkaga suyanadi.
<i>Diqqat</i>	«Diqqat» buyrug'i ozgina pauzadan keyin berilishi kerak. Bu holatga tez, ammo ortiqcha shoshilmasdan kelish lozim.

1-mashq

«Diqqat» holati – qo'llar tekis va yuqoriga ko'tarilgan bo'lishi kerak. Gantellar birlashtirilgan holda bo'yin va yuzning pastki qismiga oldinga, qo'llarning orqa tomoni tashqariga qaratiladi (20.1-chizmaga qarang).

<i>Bir</i>	Gantellar tezda ajratib yuboriladi, qo'llar tekis ushlanib, yelkalar bilan bir chiziqqa qaytarib olib kelinadi. Biroq juda kuchli harakat qilinmaydi (20.2-chizmaga qarang).
<i>Ikki</i>	Qo'llarni tekis ushlab turgan holda, gantellar bo'yin va yuzning pastki qismi oldida birlashtiriladi (20.1-chizmaga qarang).
<i>O'zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.


¹ Har bir mashq (3, 4, 6, 8, 9 yoki 12) martadan bajarilishi kerak. Ularni dastlab alohida o'rganish tavsiya etiladi. Keyinchalik esa hech qanday tanaffussiz, tezlik bilan bajarish lozim, agar boshqacha ko'rsatma berilmagan bo'lsa. Barcha mashqlar birinchi mashqdan boshlanib, oxirgi mashq bilan tugatilishi kerak. Agar bu mashq to'plami omma oldida namoyish qilinsa, u musiqa bilan hamohang bajarilishi kerak.



20-chizma

2-mashq

«Diqqat» holati – qo'llarning orqa tomoni ichkariga qaratilgan, bosh barmoqlar orqaga yo'nalgan bo'lishi kerak (21.1-chizmaga qarang).	
Bir	Qo'llar tekis ushlanib, yelkadan yon tomonga ko'tariladi va gantellarni bosh ustida birlashtiriladi (21.2-chizmaga qarang).
Ikki	Gantellar tezda ajratilib, qo'llar tekis tutilgan holda yon tomonga va pastga tushiriladi, shunda qo'l orqasi oyoqlarga tegadi.
O'zgarish	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.



21-chizma

3-mashq


«Diqqat» holati, qo'llardan tashqari, chap qo'l tirsak va bilakda bukilgan va gantel yelkaga qo'yilgunga qadar ko'tarilgan; o'ng qo'l to'g'ri va yelka chizig'iga qadar ko'tarilgan, qo'lning orqa tomoni pastda bo'ladi.

<i>Bir</i>	Chap tirsak va bilak to'g'irlanib, qo'l yelka chizig'iga mos ravishda uzatiladi (ko'zlar gantelni kuzatadi). Shu bilan birga, o'ng tirsak va bilak bukilib, o'ng qo'ldagi gantel yelkaga olib kelinadi.
<i>Ikki</i>	O'ng tirsak va bilak to'g'irlanib, qo'l yelka chizig'iga mos ravishda uzatiladi (ko'zlar gantelni kuzatadi). Shu bilan birga, chap tirsak va bilak bukilib, chap qo'ldagi gantel yelkaga olib kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga qaytiladi.

4-mashq

<i>«Diqqat» holati, faqat tirsaklar va bilaklar bukilgan hamda gantellar yelkalar ustida joylashgan.</i>	
<i>Bir</i>	Har ikki tirsak va bilak to'g'irlanib, qo'llar yelka chizig'iga parallel ravishda uzatiladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar va bilaklar bukilib, gantellar yana yelkaga olib kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida o'ng oyoqni orqaga tortib, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.

5-mashq



22-chizma

«Uchinchi» holat 6-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, faqatgina o'ng qo'l orqada bo'ladi va gantel belga tegib turadi; chap qo'l esa pastga tushgan holda chap oyoq bilan bir chiziqda bo'ladi.

<i>Bir</i>	Oldinga egilib, chap qo'l gantel yerga tegmaguncha pastga tushiriladi. Gantel chap oyoq tashqi tomonida va u bilan bir chiziqda bo'lishi kerak (22.1-chizma).
<i>Ikki</i>	Chap tizza to'g'irlanib, o'ng tizza bukiladi, tana tik holatga kelishi kerak (22.2-chizma).
<i>Uch</i>	Chap qo'l tirsakdan bukilib, gantel yelkaning old qismiga deyarli tegib turadigan darajaga ko'tariladi (22.3-chizma).
<i>To'rt</i>	Gantel bosh ustiga ko'tarilib, qo'l to'liq cho'ziladi (22.4-chizma).
<i>Besh</i>	Tirsak bukiladi va gantel yelkaga tushiriladi, orqa qismi deyarli tegib turishi kerak (22.3-chizma).
<i>Olti</i>	Qo'l to'g'irlanib, yon tomonga tushiriladi (22.2-chizma).
<i>Yetti</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi va ilgari tushuntirilganidek, «Uchinchi» holatga kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshida berilgan holatga o'tiladi.

6-mashq

«Uchinchi holat» 6-mashq, 1-qismidagi kabi, faqat bu safar chap qo'l orqada bo'ladi, gantel belga tegib turadi; o'ng qo'l esa oldinga osilgan holda chap oyoqning ichki tomonida bo'ladi.

<i>Bir</i>	Oldinga egilib, gantel yerga tegmaguncha o'ng qo'l pastga tushiriladi. Gantel chap oyoqning ichki tomonida va u bilan bir chiziqda bo'lishi kerak.
<i>Ikki</i>	Chap tizza to'g'irlanib, o'ng tizza bukiladi, tana tik holatga kelishi kerak.
<i>Uch</i>	O'ng qo'l tirsakdan bukilib, gantel yelkaning old qismiga deyarli tegib turadigan darajada ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Gantel bosh ustiga ko'tarilib, qo'l to'liq cho'ziladi.
<i>Besh</i>	Tirsak bukiladi va gantel yelkaga tushiriladi, orqa qismi deyarli tegib turishi kerak.
<i>Olti</i>	Qo'l to'g'irlanib, yon tomonga tushiriladi.
<i>Yetti</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi va ilgari tushuntirilganidek, «Uchinchi» holatga kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshida berilgan holatga o'tiladi.

7-mashq

«Uchinchi holat» 6-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, faqat qo'llar boshqacha joylashgan; chap qo'l chap oyog'ingiz bilan bir chiziqda va tashqarida osilib turadi, o'ng qo'l esa oldinda, o'ng oyog'ingizning ichki tomonida joylashadi.

<i>Bir</i>	Oldinga egilib, qo'llar pastga tushiriladi, gantellar yerga tegishi kerak: chap gantel tashqarida, o'ng gantel esa ichkarida bo'lishi lozim va ular chap oyoq bilan bir chiziqda joylashadi.
<i>Ikki</i>	Chap tizza to'g'irlanib, o'ng tizza bukiladi va tana tik holatga olib kelinadi.
<i>Uch</i>	Tirsaklar bukilib gantellar yelkaning old tomoniga deyarli tegadigan darajada ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Gantellar bosh ustiga ko'tarilib, qo'llar to'liq cho'ziladi.
<i>Besh</i>	Tirsaklar bukiladi va gantellar yelkaga tushiriladi.
<i>Olti</i>	Qo'llar to'g'irlanib, yon tomonga tushiriladi.
<i>Yetti</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi va ilgari tushuntirilganidek, «Uchinchi» holatga kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida o'ng oyoq oldinga olib kelinadi va keyingi mashqning boshida berilgan holatga o'tiladi.

8-mashq

«Uchinchi holat» 3-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, faqat qo'llar holati o'zgaradi; chap qo'l chap oyoq oldida, ichki tomonga tushib turadi; o'ng qo'l esa orqada va gantel belga qaratilgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Tana oldinga egilib, chap qo'l pastga tushiriladi, gantel yerga tegadi, oyoqning ichki tomonida va o'ng oyoq bilan bir chiziqda joylashadi.
<i>Ikki</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi, tana tik holatga qaytishi kerak.
<i>Uch</i>	Chap qo'lning tirsagi bukiladi va gantel yelkaning old qismiga deyarli tegadigan darajaga ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Gantel to'liq yuqoriga ko'tariladi, qo'l to'liq yozilishi kerak.
<i>Besh</i>	Qo'l tirsakdan bukiladi va gantel yelka tomon tushiriladi, uning orqa qismi deyarli tegishi kerak.
<i>Olti</i>	Qo'l to'g'irlanib, yon tomonga tushiriladi.
<i>Yetti</i>	Chap tizza to'g'irlanib, o'ng tizza bukiladi va ilgari tushuntirilganidek, «Uchinchi» holatga kelinadi.

<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshida berilgan holatga o'tiladi.
------------------	---

9-mashq

«Uchinchi holat» 3-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, faqat qo'llar holati o'zgaradi; chap qo'l orqada va gantel belga qaratilgan bo'ladi; o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqi tomonida va ichki qismida turadi.

<i>Bir</i>	Tana oldinga egilib, o'ng qo'l pastga tushiriladi, gantel yerga tegishi kerak, oyoqning tashqi tomoni bo'ylab va o'ng oyoq bilan bir chiziqli joylashadi.
<i>Ikki</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi, tana tik holatga qaytadi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'l tirsakdan bukilib, gantel yelkaning old qismiga deyarli tekkinicha ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Gantel qo'lni to'liq yozgan holda bosh ustiga ko'tariladi.
<i>Besh</i>	Qo'l tirsakdan bukilib, gantel yelkaga tushiriladi, orqa tomoni deyarli tegib turishi kerak.
<i>Olti</i>	Qo'l to'g'irlanib, yon tomonga tushiriladi.
<i>Yetti</i>	Chap tizza to'g'irlanib, o'ng tizza bukiladi va oldingi «Uchinchi» holatga qaytiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshida berilgan holatga o'tiladi.

10-mashq

«Uchinchi holat» 3-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, faqat qo'llar holati o'zgaradi; o'ng qo'l tananing tashqi tomonida osilib turadi va o'ng oyoq bilan bir chiziqli bo'ladi; chap qo'l esa chap oyoqning old qismida va o'ng oyoqning ichki qismida joylashadi.

<i>Bir</i>	Tana oldinga egilib, qo'llar pastga tushiriladi, gantellar yerga tegishi, chap qo'l oyoqning ichki qismida, o'ng qo'l esa oyoqning tashqi qismida bo'lishi lozim.
<i>Ikki</i>	O'ng tizza to'g'irlanib, chap tizza bukiladi, tana tik holatga qaytadi.
<i>Uch</i>	Qo'llar tirsakdan bukiladi, gantellarni yelkalar old qismiga deyarli tekkinicha ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Gantellar qo'llarni to'liq yozgan holda bosh ustiga ko'tariladi.

<i>Besh</i>	Tirsaklar bukilib, gantellar yana yelkalarga olib kelinadi.
<i>Olti</i>	Qo'llar to'g'irlanib, pastga va yon tomonlarga tushiriladi.
<i>Yetti</i>	O'ng tizza bukilib, chap tizza to'g'irlanadi va «Uchinchi» holatga qaytiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida o'ng oyoq orqaga tortiladi va navbatdagi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

11-mashq

<i>«Diqqat» holati, faqat bosh barmoqlar oldinga qaratilgan holda chap qo'ldagi gantel bosh ustida bo'ladi.</i>	
<i>Bir</i>	Chap qo'l tekis ushlanib, uchap tomonga pastga tushiriladi, bosh barmoq oldinga qarab turadi. Shu bilan birga, o'ng qo'l tekis o'ng tomonga ko'tariladi, gantel bosh ustida, bosh barmoq oldinga, tana chap tomonga egilib turadi.
<i>Ikki</i>	O'ng qo'l tekis ushlanib, u o'ng tomonga pastga tushiriladi, bosh barmoq oldinga qarab turadi. Shu bilan birga, chap qo'l tekis chap tomonga ko'tariladi, gantel bosh ustida, bosh barmoq oldinga, tanani o'ng tomonga egilib turadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida navbatdagi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

12-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Bilaklardan qo'llar oldinga, beldan biroz yuqoriroq ko'tariladi; bosh barmoqlar tepaga qaratiladi (23.2-chizmaga qarang).
<i>Ikki</i>	Qo'llar to'g'irlanadi, ular oldinga uzatiladi, qo'lning orqa tomoni pastga qaratiladi (23.3-chizmaga qarang).
<i>Uch</i>	Tirsaklar bukilib, qo'llar «Birinci» holatga qaytariladi (23.2-chizmaga qarang).
<i>To'rt</i>	Qo'llar to'g'irlanadi, gantellar bosh ustiga ko'tariladi, qo'l orqasi tashqariga qaratiladi (23.4-chizmaga qarang).
<i>Besh</i>	Mashqlar «Uchinchi» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	Mashqlar «Ikkinchi» harakat bilan bir xil bajariladi.
<i>Yetti</i>	Mashqlar «Uchinchi» harakat bilan bir xil bajariladi.
<i>Sakkiz</i>	Qo'llar yon tomonlarga tushiriladi. (23.1-chizmaga qarang).

O'zgarish

«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqning boshida ko'rsatilgan holatga kelinadi.



23-chizma

13-mashq

«Diqqat» holati.

<i>Bir</i>	Tizzalar bukiladi va tana pastga tushiriladi, u deyarli perpendikulyar holatda ushlab turiladi, shunda gantellar yerga tegadi, oyoqlarning tashqi tomonida va ular bilan bir chiziqda joylashadi; oyoqlar butun yuzasi bilan yerga tegib turishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tizzalar to'g'irlanadi va tanani tik holatga qaytariladi.
<i>Uch</i>	Qo'llar tirsaklardan bukiladi va gantellar yelkalar old qismiga tegadigan darajaga ko'tariladi.
<i>To'rt</i>	Qo'llar to'liq yozilgan holda gantellar bosh ustiga ko'tariladi.
<i>Besh</i>	Qo'llar tirsaklardan bukilib, gantellar yana yelkaga tushiriladi.
<i>Olti</i>	Qo'llar to'g'irlanadi va gantellar yon tomonlarga tushiriladi.


<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» so'zi aytilganda, keyingi mashqning boshida ko'rsatilgan holatga kelinadi.
------------------	--

14-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Gantellar oldinga yuqoriga siltanadi va tirsaklar bukilib, ular bosh ustidan orqaga o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar tirsakdan to'g'irlanib pastga tushiriladi, gantellar oyoqlarning orqa tomoni bo'ylab iloji boricha pastga o'tkaziladi.

Gavda butun mashq davomida tik va barqaror holatda bo'ladi.

<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i berilganda, tezda keyingi mashqning boshlag'ich holatiga o'tiladi.
------------------	---



24-chizma

15-mashq

Holat: Oyoqlar yelkalar kengligida taxminan 16 dan 24 dyuymgacha (o'quvchining bo'yiga qarab) ochiladi. Tizzalar tekis, tovonlar bir chiziqda, o'ng qo'l orqaga, bel ortga olib borilgan, kaft ichkariga qaragan, gantel esa orqada belga tayanib turadi. Chap qo'l tirsakdan bukilgan va yelka darajasiga ko'tarilgan, gantel esa yelkaning orqasida joylashadi. Tana esa ozgina orqaga egiladi (24.1-chizma).

<i>Bir</i>	Chap tirsak to'g'irlanib, oldinga egilib, gantel chap qo'lda oyoqlar orasiga tushirilib, tizzalar tik tutiladi (24.2-chizma)
<i>Ikki</i>	Gantel yuqoriga ko'tariladi va tana dastlabki «Holat»ga qaytadi (24.1-chizma).
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida navbatdagi mashq boshlanishi uchun belgilangan holatga kelinadi.

16-mashq

Holat: Oyoqlar orasidagi masofa 16–24 dyuym (o'quvchining o'lchamiga qarab), tizzalar tik, tovonlar bir chiziqda; chap qo'l orqaga, kaft ichkariga qaragan holda, gantel orqaga suyanib turadi; o'ng qo'l tirsakda bukilgan va yelkaga ko'tarilgan; gantel yelka ortida, tana esa ozgina orqaga egiladi.

<i>Bir</i>	O'ng tirsak to'g'irlanadi va oldinga egilib, gantel o'ng qo'lda oyoqlar orasiga tushiriladi, tizzalar tik tutiladi.
<i>Ikki</i>	Gantel yuqoriga ko'tariladi va tana dastlabki «Holat»ga qaytadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida navbatdagi mashq boshlanishi uchun belgilangan holatga kelinadi.

17-mashq

Holat: 16-mashq bilan bir xil bajariladi.

<i>Bir</i>	O'ng tirsak to'g'irlanadi va oldinga egilib, gantel o'ng qo'lda oyoqlar orasiga tushiriladi, tizzalar tik tutiladi.
<i>Ikki</i>	Tana biroz orqaga egilgan holda, o'ng qo'ldagi gantel o'ng oyoq atrofida aylantirilib, tirsak bukilib, gantel orqaga va belga yaqin joyga ko'tariladi (kaftning orqa tomoni ichkariga qaratiladi). Shu bilan birga, chap qo'l va chap qo'ldagi gantel orqadan olib chiqilib, tirsak bukiladi va gantel yelka ustiga hamda orqasiga ko'tariladi.

<i>Uch</i>	Chap tirsak to'g'irlanadi va oldinga egilib, chap qo'ldagi gantel oyoqlar orasiga tushirilib, tizzalar tik tutiladi.
<i>To'rt</i>	Tana biroz orqaga egilgan holda, chap qo'ldagi gantel chap oyoq atrofida aylantirilib, tirsak bukilib, gantel orqaga va belga yaqin joyga ko'tariladi (kaftning orqa tomoni ichkariga qaratiladi). Shu bilan birga, o'ng qo'l va gantel orqadan olib chiqilib, tirsak bukiladi va gantel yelka ustiga hamda orqasiga ko'tariladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida navbatdagi mashq boshlanishi uchun belgilangan holatga kelinadi.

18-mashq

Holat: «Diqqat» holati bilan bir xil, faqat qo'llar to'g'ri va yelkalar bilan bir chiziqda ko'tarilgan bo'lishi kerak. Kaftlarning orqa tomoni yuqoriga, bosh bar-moqlar oldinga qaragan bo'lishi lozim.

<i>Bir</i>	Qo'llar buriladi, kaftlarning orqa tomoni pastga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar yana buriladi, kaftlarning orqa tomoni yuqoriga qaratiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida navbatdagi mashq boshlanishi uchun belgilangan holatga kelinadi.

19-mashq

«Diqqat» holati, faqat gantellar bosh ustida ko'tarilgan, qo'llar to'g'ri va kaft orqasi old tomonga qaratilgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Qo'llar orqaga buriladi, kaft orqasi orqaga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar oldinga buriladi, kaft orqasi oldinga qaratiladi.
<i>O'zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

20-mashq

«Diqqat» holati, faqat qo'llar oldinga cho'zilgan, yelka balandligida, kaft orqasi pastga qaratilgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Qo'llar yuqoriga buriladi, kaft orqasi tepaga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar pastga buriladi, kaft orqasi pastga qaratiladi.
<i>O'zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

21-mashq

«Diqqat» holati, faqat tirsaklar bukilgan, bilaklar oldinga cho‘zilgan, kaft orqasi pastga qaratilgan bo‘ladi.

<i>Bir</i>	Gantellar yuqoriga buriladi, kaft orqasi yuqoriga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Gantellar pastga buriladi, kaft orqasi pastga qaratiladi.
<i>O‘zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang‘ich holatiga o‘tiladi.

22-mashq

«Diqqat» holati, faqat kaft orqasi oldinga qaratilgan bo‘ladi.

<i>Bir</i>	Qo‘llar orqaga buriladi, kaft orqasi orqaga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Qo‘llar oldinga buriladi, kaft orqasi oldinga qaratiladi.
<i>O‘zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang‘ich holatiga o‘tiladi.

23-mashq



25-chizma

«Diqqat» holati, faqat tirsaklar bukilgan va yelkadan yuqoriga ko‘tarilgan, gantellar bosh orqasida joylashgan bo‘ladi (25.1-chizma).

<i>Bir</i>	Tirsaklar to'g'irlanadi va pastga siltanadi, gantellarning oyoq orqasiga iloji boricha o'tishiga imkon beriladi. Shu bilan birga, tizzalar va sonlar bukilib, tana deyarli tik holatda pastga tushiriladi; gantellar oyoqlardan o'tayotganda yerga tegib o'tishi kerak (25.2-chizma). So'ngra oyoqlarni to'g'irlash orqali tana yana ko'tariladi.
<i>Ikki</i>	Gantellar yana yuqoriga ko'tariladi, ular yelkalarining orqasida va yuqorisida bo'lishi kerak (25.1-chizma).
<i>O'zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

24-mashq

Holat: 23-mashqdagi harakatlar bilan bir xil bajariladi.

<i>Bir</i>	Qo'llar tirsakdan to'g'irlanadi va pastga siltanadi, gantellarning oyoq orqasidan iloji boricha o'tishiga imkon beriladi.
<i>Ikki</i>	Gantellar yelkalarining orqasida va yuqorisida ushlab turiladi, shu bilan birga son va tizzalar bukilib, tana deyarli tik holatda pastga tushiriladi. Keyin oyoqlarni to'g'irlash orqali tana tik holatga qaytariladi.
<i>O'zgarish</i>	Keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

25-mashq

Holat: 23 va 24-mashqlardagi holatlar bilan bir xil bajariladi.

<i>Bir</i>	Qo'llar tirsakdan to'g'irlanadi va pastga siltanadi, gantellarning oyoq orqasiga iloji boricha o'tishiga imkon beriladi. Shu bilan birga, tizzalar va sonlar bukilib, tana deyarli tik holatda pastga tushiriladi, gantellar oyoqlardan o'tayotganda yerga tegib o'tishi kerak. Keyin oyoqlarni to'g'irlash orqali tana yana tik holatga qaytariladi.
<i>Ikki</i>	Gantel yelkalardan yuqoriga va orqaga ko'tariladi, shu bilan birga, son va tizzalar bukilib, tana pastga tushiriladi, u deyarli tik holatda ushlab turiladi. Keyin oyoqlar to'g'irlanib, tana tik holatga qaytariladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i berilganda, keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

26-mashq



26-chizma

«Diqqat» holati, faqat chap qo'l tirsakdan bukilgan va yelka ustidan boshning tepasiga ko'tarilgan, qo'l kafti esa orqaga yo'naltirilgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va qo'ldagi gantel chap qo'lda oldindan orqaga qarab aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashq boshidagi holatga qaytiladi.

27-mashq

Holat: 26-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortilib, qo'ldagi gantel chap qo'lda orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

28-mashq

Holat: «Diqqat» holati, faqat o'ng qo'l tirsakdan bukilgan va yelkadan yuqoriga ko'tarilgan; qo'lning orqa tomoni orqaga qaragan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va gantel o'ng qo'lda oldindan orqaga qarab bosh atrofida aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

29-mashq

Holat: 28-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va gantel o'ng qo'lda orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

30-mashq

«Diqqat» holati, biroq qo'llar tirsaklardan bukilgan va yelkalardan yuqoriga ko'tarilgan; o'ng qo'l oldinda, kaftlarning orqa tomoni esa orqaga yo'naltirilgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va gantellar oldindan orqaga qarab bosh atrofida aylantiriladi. Chap qo'ldan boshlab, keyin o'ng qo'lda davom ettiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

31-mashq

Holat: 29-mashqdagi holat bilan bir xil, faqat chap qo'l oldinda bo'ladi.

<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va gantellar orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi. O'ng qo'ldan boshlab, keyin chap qo'lda davom ettiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» so'zida o'ng oyoqni orqaga tortib, keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

32-mashq

«Uchinchi» holat, 6-mashq, birinchi qism kabi, faqat tana chap oyoqqa suyangani, o'ng qo'ldagi gantel yerda, chap oyoq ichki qismiga tegib turadi. Ikkinchi gantel chap qo'lda ushlanadi. Qo'llar osilgan, chap qo'l tashqarida, o'ng qo'l esa chap oyoq orqasida joylashadi.

<i>Bir</i>	Gantel chap qo'ldan olinib, chap oyoq orqasidan o'ng qo'lga uzatiladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l chap oyoqning tashqarisiga, o'ng qo'l esa chap oyoq ichiga olinib, oldinga harakatlantiriladi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'ldagi gantel chap oyoqning oldida chap qo'lga uzatiladi.

<i>To'rt</i>	Chap qo'l tashqariga, o'ng qo'l esa chap oyoq ichiga olinib, orqaga aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» so'zida keyingi mashq boshidagi holatga kelinadi.

33-mashq

Holat: 32-mashqdagi harakatlar bilan bir xil bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'l tashqariga olib chiqiladi, o'ng qo'l esa chap oyoqning ichki tomonidan oldinga qarab aylantiriladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'ldan gantel olinadi, chap oyoq oldidan o'ng qo'lga uzatiladi.
<i>Uch</i>	Chap qo'l tashqariga olib chiqiladi, o'ng qo'l esa chap oyoqning ichki tomonidan orqaga qarab aylanadi.
<i>To'rt</i>	Gantel o'ng qo'ldan chap qo'lga, chap oyoqning orqa tomonidan o'tkaziladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.

34-mashq

Holat: 32 va 33-mashqlar bilan bir xil tarzda bajariladi, ammo o'ng tizza bukilgan, chap oyoq esa to'g'ri holatda bo'ladi. Tana o'ng oyoq ustiga egilgan, qo'llar osilgan, chap qo'l tananing ichki tomonida, o'ng qo'l esa tashqi tomonida joylashadi.

<i>Bir</i>	Chap qo'ldagi gantel o'ng tizza ortiga, o'ng qo'lga uzatiladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa oldinga va tashqariga aylanadi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'ldagi gantel o'ng oyoq oldidan chap qo'lga uzatiladi.
<i>To'rt</i>	Chap qo'l ichkariga harakat qilib, o'ng qo'l tashqariga aylanadi va gantel orqaga uzatiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.


35-mashq

Holat: 34-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa tashqariga harakatlantirilib, gantel o'ng oyoq oldiga olib boriladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'ldan o'ng qo'lga, o'ng oyoqning old qismida gantel uzatiladi.
<i>Uch</i>	Chap qo'l ichkaridan, o'ng qo'l esa tashqaridan aylantirilib, gantel o'ng oyoqning orqasiga o'tkaziladi.
<i>To'rt</i>	O'ng qo'ldagi gantel o'ng oyoq orqasidan chap qo'lga uzatiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.

36-mashq

«Uchinchi holat», 6-mashq, Birinchi qism gimnastikasida tushuntirilgan holatga o'xshaydi. Faqat bu safar tana yarmigacha o'ngga burilgan va oldinga egilgan holatda bo'ladi. O'ng qo'ldagi gantel yerda, chap oyoq ichki tomonidan tegib turadi, ikkinchi gantel esa chap qo'lda ushlab turiladi. Qo'llar osilgan, chap qo'l tananing ichki tomonida, o'ng qo'l esa tashqarisida joylashadi (27.1-chizma).



27-chizma

<i>Bir</i>	Chap qo'l chap oyoq tashqarisiga, o'ng qo'l esa o'ng oyoqning ichki tomoniga harakatlantiriladi (27.2-chizma).
<i>Ikki</i>	Chap oyoq to'g'irlanib, o'ng oyoq bukilgan holda, chap qo'ldagi gantel chap oyoq ortidan o'ng qo'lga uzatiladi.
<i>Uch</i>	Tana o'ng tomonga burilib, chap qo'l chap oyoq ichki tomoniga va o'ng qo'l o'ng oyoq tashqi tomoniga olib boriladi (27.3-chizma).
<i>To'rt</i>	O'ng oyoq to'g'irlanib, chap oyoqni bukkagan holda, o'ng qo'ldagi gantel o'ng oyoq ortidan chap qo'lga uzatiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ini eshitganda, navbatdagi mashqning boshlang'ich holatiga kelinadi.

37-mashq

Holat: 36-mashq bilan bir xil, faqat tana o'ng tomonga burilgan tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap oyoq to'g'irlanib, o'ng oyoq bukiladi va gantel chap qo'ldan o'ng qo'lga, o'ng oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Tana yarmigacha o'ng tomonga burilib, chap qo'l chap oyoq tashqarisiga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq ichkarisiga harakatlantiriladi.
<i>Uch</i>	O'ng oyoq to'g'irlanib, chap oyoq bukiladi va gantel o'ng qo'ldan chap qo'lga, chap oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>To'rt</i>	Tana yarmigacha o'ng tomonga burilib, chap qo'l chap oyoq ichkarisiga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisiga harakatlantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, o'ng oyoq chap oyoq yoniga olib kelinadi, so'ng chap oyoqni orqaga tortib, keyingi mashq boshida berilgan holatga kelinadi.

38-mashq

«Uchinchi» holat, 3-mashqning 1-qismida tushuntirilganidek, lekin tana o'ng oyoq ustiga egilgan tarzda bajariladi. Bitta gantel o'ng oyoq ichida yerga tegib turadi, ikkinchisi chap qo'lda ushlab turiladi. Qo'llar osilgan, chap qo'l tananing ichki tomonida, o'ng qo'l esa tashqarida, o'ng oyoqning orqasida joylashadi.

<i>Bir</i>	Gantel chap qo'ldan o'ng qo'lga, o'ng oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisidan oldinga harakatlantiriladi.
<i>Uch</i>	Gantel o'ng qo'ldan chap qo'lga, o'ng oyoq oldidan o'tkaziladi.
<i>To'rt</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisiga harakatlantirilib, gantel orqaga uzatiladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.

39-mashq

Holat: 38-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisiga harakatlantirilib, old tomonga olib boriladi.
<i>Ikki</i>	Gantel chap qo'ldan o'ng qo'lga, o'ng oyoq oldidan o'tkaziladi.
<i>Uch</i>	Chap qo'l ichkariga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisiga, orqa tomonga olib boriladi.
<i>To'rt</i>	Gantel o'ng qo'ldan, o'ng oyoq orqasidan chap qo'lga o'tkaziladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatga kelinadi.

40-mashq

Holat: 38 va 39-mashqlardagi bilan bir xil, faqat chap tizza bukilgan, o'ng oyoq esa to'g'ri holatda joylashadi. Tana chap oyoq ustiga egilgan, qo'llar esa pastga osilib turgan, chap qo'l chap oyoqning tashqi va orqa tomonida, o'ng qo'l esa chap oyoqning ichki va orqa tomonida joylashgan bo'ladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'ldagi gantel chap oyoq orqasidan o'ng qo'lga o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l tashqaridan, o'ng qo'l esa ichkaridan chap oyoq old tomoniga olib boriladi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'ldagi gantel chap oyoq oldidan chap qo'lga uzatiladi.
<i>To'rt</i>	Chap qo'l tashqariga, o'ng qo'l esa chap oyoqning orqa tomoniga olib kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatiga qaytiladi.

41-mashq

Holat: 40-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'l tashqaridan, o'ng qo'l esa chap oyoqning old tomonidan ichkariga olib kelinadi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'ldagi gantel chap oyoq oldidan o'ng qo'lga uzatiladi.
<i>Uch</i>	Chap qo'l tashqariga, o'ng qo'l esa chap oyoqning orqa tomoniga olib kelinadi.
<i>To'rt</i>	O'ng qo'ldagi gantel chap oyoq orqasidan chap qo'lga o'tkaziladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holatiga qaytiladi.

42-mashq

«Uchinchi» holat, 3-mashq, 1-qismida tushuntirilganidek, tana yarim chapga burilgan va egilgan holatda bo'ladi. O'ng qo'ldagi gantel yerda, o'ng oyoqning ichki tomoniga tegib turadi, ikkinchi gantel esa o'ng qo'lda bo'ladi. Qo'llar osilib turadi; chap qo'l chap oyoqning tashqi tomonida, o'ng qo'l esa o'ng oyoqning ichki tomonida joylashadi.


<i>Bir</i>	Chap qo'l chap oyoq ichki tomoniga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq tashqarisiga olib kelinadi.
<i>Ikki</i>	O'ng oyoq to'g'irlanib, chap oyoq bukilib, gantel o'ng qo'ldan chap qo'lga, o'ng oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>Uch</i>	Tana chap tomonga burilib, chap qo'l chap oyoq tashqarisiga, o'ng qo'l esa o'ng oyoq ichkarisiga olib kelinadi.
<i>To'rt</i>	Chap oyoq to'g'irlanib, o'ng oyoq bukilib, gantel chap qo'ldan o'ng qo'lga, chap oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashqdagi boshlang'ich holat qaytiladi.

43-mashq

Holat: 42-mashqdagi kabi, faqat tana chap tomonga burilgan tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	O'ng oyoq to'g'irlanib, chap oyoq bukilib, gantel o'ng qo'ldan chap qo'lga, chap oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Tana yarim chapga burilib, chap qo'l chap oyoqning ichki tomoniga, o'ng qo'l esa o'ng oyoqning tashqi tomoniga olib kelinadi.
<i>Uch</i>	Chap oyoq to'g'irlanib, o'ng oyoq bukiladi va gantel o'ng oyoq orqasidan o'tkaziladi.
<i>To'rt</i>	Tana chap tomonga burilib, chap qo'l chap oyoqning tashqi tomoniga, o'ng qo'l esa o'ng oyoqning ichki tomoniga olib kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida ikkinchi gantel olinib, chap oyoq o'ng oyoq yoniga qo'yiladi va keyingi mashqning boshlang'ich holati qabul qilinadi.

44-mashq



28-chizma

Holat: «Diqqat» holatiga o'xshaydi, lekin chap qo'lining orqa tomoni oldinga qaratiladi.

<i>Bir</i>	Chap qo'l chap tomonga chiqarilib, iloji boricha yuqoriga ko'tariladi; qo'l-ning orqa tomoni oldinga qaratiladi (28.1-chizmaga qarang).
<i>Ikki</i>	Qo'l pastga tushiriladi, tirsakdan bukilib orqadan o'tkaziladi (28.2-chizmaga qarang).
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holati qabul qilinadi.

45-mashq

«Diqqat» holati, lekin o'ng qo'lining orqa tomoni oldinga qaratilgan holatda bo'ladi.

<i>Bir</i>	O'ng qo'l o'ng tomonga chiqarilib, iloji boricha yuqoriga ko'tariladi; qo'l-ning orqa tomoni oldinga qaratiladi.
<i>Ikki</i>	Qo'l pastga tushiriladi, tirsak bukilib, orqadan o'tkaziladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holatiga o'tiladi.

46-mashq

«Diqqat» holati, lekin ikkala qoʻlning orqa tomoni oldinga qaratilgan va chap qoʻl chap tomonga koʻtarilgan boʻladi.

<i>Bir</i>	Chap qoʻl pastga tushirilib, tirsak bukiladi va orqadan oʻtkaziladi, shu bilan birga oʻng qoʻl oʻng tomonga chiqarilib, iloji boricha yuqoriga koʻtariladi.
<i>Ikki</i>	Oʻng qoʻl pastga tushirilib, tirsak bukiladi va orqadan oʻtkaziladi, shu bilan birga chap qoʻl chap tomonga chiqarilib, iloji boricha yuqoriga koʻtariladi.
<i>Oʻzgarish</i>	«Oʻzgarish» buyrugʻida keyingi mashqning boshlangʻich holati qabul qilinadi.

47-mashq

«Diqqat» holati, lekin oʻng qoʻl tirsakdan bukiladi va orqada turadi, gantel esa orqada belga tegib turadi.

<i>Bir</i>	Chap qoʻl tekis holda oldindan orqaga qarab doira shaklida aylantiriladi.
<i>Oʻzgarish</i>	«Oʻzgarish» buyrugʻida keyingi mashqning boshlangʻich holatiga qaytiladi.

48-mashq

Holat: 47-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap qoʻl tekis holda orqadan oldinga qarab doira shaklida aylantiriladi.
<i>Oʻzgarish</i>	«Oʻzgarish» buyrugʻida keyingi mashqning boshlangʻich holatiga qaytiladi.

49-mashq

«Diqqat» holati, lekin chap qoʻl tirsakdan bukilgan va orqaga oʻtkazilgan, gantel orqada belga tegib turadi.

<i>Bir</i>	Oʻng qoʻl tekis holda oldindan orqaga qarab doira shaklida aylantiriladi.
<i>Oʻzgarish</i>	«Oʻzgarish» buyrugʻida keyingi mashqning boshlangʻich holatiga qaytiladi.

50-mashq

Holat: 49-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

Bir	O'ng qo'l tekis holda orqadan oldinga qarab doira shaklida aylantiriladi.
O'zgarish	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holatiga qaytiladi.

51-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin qo'llar va gantellar boshdan yuqoriga ko'tariladi.</i>	
Bir	Chap qo'l to'g'ri holda pastga tushiriladi va oldindan orqaga qarab doira shaklida aylantiriladi.
Ikki	O'ng qo'l to'g'ri tutilgan holda pastga tushiriladi va doira shaklida oldindan orqaga aylantiriladi. Ushbu harakat chap qo'l oyoq yonidan o'tayotgan paytda boshlanadi.
O'zgarish	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holatiga qaytiladi.

52-mashq

<i>Holat: 51-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
Bir	Chap qo'l to'g'ri holda pastga tushiriladi va orqadan oldinga qarab doira shaklida aylantiriladi.
Ikki	O'ng qo'l to'g'ri tutilgan holda pastga tushiriladi va doira shaklida orqadan oldinga aylantiriladi. Ushbu harakat chap qo'l oyoq yonidan o'tayotgan paytda boshlanadi.
O'zgarish	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holatiga qaytiladi.

53-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin qo'llar va gantellar bosh ustida ko'tarilgan; qo'llarning orqa tomoni orqaga qaragan holatda bo'ladi.</i>	
Bir	Tizzalar va qo'llar to'g'ri ushlanib, tana oldinga egilib, gantellar pastga tushiriladi va oyoqlarning orqa tomoniga iloji boricha yaqinroq olib boriladi.
Ikki	Tananing holati tiklanadi va gantellar yuqoriga ko'tariladi, ular bosh ustiga olib boriladi.
O'zgarish	«O'zgarish» buyrug'ida keyingi mashqning boshlang'ich holatiga qaytiladi.

54-mashq

«Diqqat» holati, lekin tirsaklar va bilaklar bukilgan; gantellar qo'ltiq ostida joylashgan va tanaga tegib turadi.

<i>Bir</i>	Tirsaklar va bilaklar tekislangan holda, gantellar tashqariga va iloji boricha yuqoriga ko'tariladi, qo'llar burilmasdan, shu bilan birga barmoqlar uchida ko'tarilib, tushiriladi.
<i>Ikki</i>	Gantellar pastga va ichkariga harakatlantiriladi, tirsaklar va bilaklar bukilib, ular qo'ltiq ostiga joylashtiriladi. Bu harakat davomida ham barmoqlar uchida ko'tarilib, tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'ida qo'llar yon tomonlarga tushirilib, Diqqat holatiga o'tiladi.
<i>Salom berish</i>	Bo'limning boshida tushuntirilganidek bajariladi.
<i>Diqqat</i>	Bo'limning boshida tushuntirilganidek bajariladi.
<i>Sinf oldida saft tortish</i>	Harakat shakllanish usullariga qarang.
<i>Salom berish</i>	Yuqoridagi mashqlarga o'xshab bajariladi.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Sinf o'ng tomonga buriladi.
<i>Sinf – mashq-ni tugat</i>	Harakat shakllanish usullariga qarang.

JOYIDA ARQON BILAN BAJARILADIGAN MASHQLAR TO'PLAMI

O'quvchilarga oyoqlar va qo'llardan foydalanib arqonga chiqishga ruxsat berilmasligi kerak; haqiqiy gimnastikaga loyiq sportchi bunday usulda mashq qilishni o'ziga ep ko'rmaydi, shuningdek, bunga hech qanday ehtiyoj ham yo'q. Agar o'quvchi X guruhgacha bo'lgan barcha mashqlarni puxta bajarsa, u faqat qo'llardan foydalanib haqiqiy gimnastik usulda arqonga chiqishga qodir bo'ladi.

Ushbu to'plamdagidagi har bir guruhning mashqlari to'liq o'zlashtirilgandan so'nggina keyingisiga o'tish tavsiya etiladi.

Sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga ushbu guruhdagi hech qanday mashqni bajartirish kerak emas.

TEXNIK ATAMALAR

I guruh – Bitta arqonga sakrab chiqish va tortilish; sakrab oyoq ichki qismini arqonga tekkizish.

II guruh – Ikkita arqonga sakrab chiqish va tortilish; sakrab oyoqning ustki qismini arqonlarga tekkizish; sakrash va burilish.

III guruh – Tebranib harakat qilish; oyoqning ustki qismini arqonlarga tekki-zib tebranish va aylanib o'tish.

IV guruh – Bitta arqonga tortilib chiqish; oyoqlarni yuqoriga ko'tarish.

V guruh – Ikkita arqonda tekis yuqoriga ko'tarilish.

VI guruh – Arqon yoki ularga sakrab chiqish.

VII guruh – Tekis yuqoriga tortilish – oyoq to'g'ri burchak ostida.

VIII guruh – Qo'llarni harakatlantirib yuqoriga tortilish.

IX guruh – Qo'llarni harakatlantirib yuqoriga tortilish – oyoqlar to'g'ri burchak ostida.

X guruh – Bitta arqonga chiqish – oyoqlar pastga osilib turadi va to'g'ri burchakda bo'ladi.

XI guruh – Ikkita arqonga chiqish – oyoqlar pastga osilib turishi va to'g'ri burchakda bo'lishi kerak.

XII guruh – Ikki arqonga sakrab chiqish – oyoqlar pastga osilib turishi va to'g'ri burchakda bo'lishi kerak.

I GURUH

Sinf – saflan

Sinf safini shakllantirish uchun Guruh mashqlari 24-bo'limga qarang.

O'quvchi (yoki o'quvchilar) mashqni tugatgandan so'ng, sinf oldidan harakatlanib va burilib, o'z joyiga qaytadi. Keyin sinf orqa qismida joylashib, o'z joyi ro'parasiga kelgach, burilib, o'z joyiga qadam qo'yadi, to'xtaydi va erkin turadi.

Sinf saf holatida bo'lganda, ular arqonlarga qaragan bo'ladi.

Sinf – erkin

Guruh mashqlari 2-bo'limga qarang.

O'quvchilar ushbu holatda turishadi. Mashq bajarish vaqti kelganda, darhol «Diqqat» holatini egallab, arqonning old qismiga borishadi va mashq boshlanishi uchun belgilangan joyni egallashadi.

1-mashq



29-chizma

«Diqqat» holati, faqat qo'llar yuqoriga ko'tarilgan, tirsaklar bosh ustida biroz egilgan tarzda bo'ladi. Qo'llar arqonni mahkam ushlaydi: chap qo'l pastda, o'ng qo'l esa tepa qismda bo'lib, deyarli chap qo'lga tegib turadi. Barmoqlar arqonning bir tomonida, bosh barmoqlar esa qarama-qarshi tomonda joylashadi. Arqon o'ng oyoq tashqi tomonida osilib turadi.

<i>Bir</i>	Qo'llar to'g'irlanadi va tizzalar bukilib, tana pastga tushiriladi, shunda vazn asosan qo'llarga tushadi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlar to'g'irlanadi va qo'llar bukilib, ushlagan joyni o'zgartirmasdan iloji boricha baland sakraladi.
<i>Uch</i>	Tana asta-sekin pastga tushiriladi va oyoqlar yerga tegadi.

Bu mashq 3–4 marta takrorlanishi kerak, so‘ng «Keyingi» buyrug‘i beriladi.

<i>Keyingi</i>	Bu buyruq aytilganda, mashqni tugatgan o‘quvchi (yoki o‘quvchilar) oldindan aytib o‘tilgan tartibda joyini tark etadi. Navbatdagi o‘quvchi esa «Diqqat» holatini egallab, mashq boshlanadigan holatni qabul qiladi.
----------------	---

2-mashq

Holat: 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat «o‘ng» so‘zi qayerda uch-rasa, uning o‘rniga «chap» so‘zi o‘qiladi va aksincha.

Bu mashq 1-mashq bilan bir xil usulda bajariladi.

3-mashq

<i>Holat: 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlar to‘g‘rilanadi va qo‘llar bukilib, sakraladi, oyoqlar yuqoriga ko‘tariladi va o‘ng oyoq ichki qismi arqonga, qo‘llar ustiga olib kelinadi.
<i>Uch</i>	Oyoqlar iloji boricha sekin yerga tushiriladi.
<i>To‘rt</i>	1-mashqdagi «Birinchii» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Besh</i>	Oyoqlar to‘g‘rilanadi va qo‘llar bukilib, sakraladi, oyoqlar yuqoriga ko‘tariladi va chap oyoq ichki qismi arqonga, qo‘llar ustiga olib kelinadi.
<i>Olti</i>	«Uchinchi» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Yetti</i>	«Birinchii» harakat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Sakkiz</i>	Oyoqlar to‘g‘rilanadi va qo‘llar bukilib, sakraladi, oyoqlar yuqoriga ko‘tariladi va arqon oyoqlarning ichki qismi bilan ushlanadi.
<i>To‘qqiz</i>	«Uchinchi» mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	1-mashqqa qarang.

4-mashq

<i>Holat: 2-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi. Bu mashq 3-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Sinf – o‘ngga buril</i>	Guruh mashg‘uloti 4-bo‘limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg‘uloti 51-bo‘limga qarang.

II GURUH

Sinf – saflan	I guruh harakatlariga qarang.
Tinch holatda turish	I guruh harakatlariga qarang.

1-mashq

Holat: 1-mashq (I guruh) bilan bir xil, faqat chap qo'l chap tomondagi arqonni, o'ng qo'l esa o'ng tomondagi arqonni ushlaydi. Ikkala qo'l ham bir xil balandlikda bo'ladi, arqonlar esa oyoqlarning tashqi tomoniga osilib turadi.

Bu mashq I guruhdagi 1-mashq bilan bir xil usulda bajariladi.

2-mashq



30-chizma

<i>Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil usulda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	I-mashq harakatlari bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlar to'g'rilanadi va qo'llar bukilib, sakraladi, oyoqlar yuqoriga ko'tariladi va o'ng oyoq ustki tomoni o'ng qo'l bilan ushlab turgan arqonga olib kelinadi.
<i>Uch</i>	Gavda egilib, iloji boricha arqonlar orasiga olib kelinadi.
<i>To'rt</i>	Tana «Ikkinchi» holatga qaytarilib, oyoqlar sekin yerga tushiriladi.
<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashq harakatlari bilan bir xil usulda bajariladi.

3-mashq

Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.

Bu mashq 2-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat chap oyoqning ustki qismi chap qo'l bilan ushlangan arqonga tegadi.

4-mashq

Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.

Bu mashq 2-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat ikkala oyoqning ustki qismi arqonlarga tegib turadi.

5-mashq

<i>Holat: 1-mashq bilan bir xil.</i>	
<i>Bir</i>	1-malshq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	2-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Uch</i>	2-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	2-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Besh</i>	«Birinch» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	3-mashqdagi «Ikkinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Yetti</i>	3-mashqdagi «Uchinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Sakkiz</i>	3-mashqdagi «To'rtinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'qqiz</i>	«Birinch» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'n</i>	4-mashqdagi «Ikkinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'n bir</i>	4-mashqdagi «Uchinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'n ikki</i>	4-mashqdagi «To'rtinchi» holatdagi mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqni ko'ring.

6-mashq



31-chizma

Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqonlar qo'llar bilan ushlanadi va yelkalar balandligida bo'ladi.

<i>Bir</i>	1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlar to'g'rilanadi va qo'llar bukilib, sakraladi, oyoqlar yuqoriga va orqaga ko'tariladi. Arqonlar orasidan orqaga o'tib, yerga tushiladi.
<i>Uch</i>	«Birinchi» holatdagi harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Oyoqlar to'g'irlanib, qo'llar bukilgan holda sakraladi va tana yuqoriga va orqaga ko'tariladi. Arqonlar orasidan oldinga o'tib, oyoqlar yerga tushiriladi va mashq boshidagi holatga qaytiladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

III GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh harakatlariga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruh harakatlariga qarang.

1-mashq

<i>Holat: II guruhning 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat oyoq uchida turib, qo'llar to'liq yuqoriga ko'tarilib, arqonlar ushlanadi.</i>	
<i>Bir</i>	Oyoqlar yerdan oldinga ko'tariladi va tizzalar bukiladi.
<i>Ikki</i>	Tizzalar to'g'irlanib, oyoqlar oldinga cho'ziladi. Gavda bukilgan holda orqaga silkitilib, oyoqlar orqaga o'tkaziladi.
<i>Uch</i>	Oyoqlar yana oldinga harakatlantirilib, tizzalar ko'tarilib, boshlang'ich holatga qaytiladi.
<i>To'rt</i>	Tizzalar to'g'irlanib, oyoqlar oldinga cho'ziladi. Ushbu mashq 3–4 marta takrorlanadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

2-mashq

<i>Holat: I guruh, 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i> <i>Ikki</i> <i>Uch</i>	1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	O'ng oyoqning ustki qismi o'ng qo'lda ushlab turgan arqonga tekkiziladi.
<i>Besh</i>	II guruh, 2-mashqning 3-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	II guruh, 2-mashqning 4-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

3-mashq

<i>Holat: 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i> <i>Ikki</i> <i>Uch</i>	1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Chap oyoqning ustki qismi chap qo'lda ushlab turgan arqonga tekkiziladi.
<i>Besh</i>	II guruh, 3-mashqning 3-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	II guruh, 3-mashqning 4-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

4-mashq

<i>Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir Ikki Uch</i>	1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Ikkala oyoqning ustki qismi arqonga tekkiziladi.
<i>Besh</i>	II guruh, 4-mashqning 3-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	II guruh, 4-mashqning 4-holati bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

5-mashq

<i>Holat: 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	1-mashqning 1, 2 va 3-holatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	O'ng oyoqning ustki qismi o'ng qo'l bilan ushlab turgan arqonga tekki- ziladi va tana egilgan holda u iloji boricha arqonlar orasiga olib kelinadi.
<i>Uch</i>	Tana pastga egilib, tizzalar to'g'irlanadi, oyoqlar oldinga tashlanadi va tana orqaga egilib silkinadi.
<i>To'rt</i>	Oyoqlar oldinga qaytarilib, tizzalar bukiladi, chap oyoqning ustki qismi chap qo'l bilan ushlab turgan arqonga tekkiziladi va tana egilgan holda u iloji boricha arqonlar orasiga olib boriladi.
<i>Besh</i>	3-holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	4-holat bilan bir xil, lekin bu safar ikkala oyoqning ustki qismlari arqon- larga tekkiziladi.
<i>Yetti</i>	Oyoqlar yerga, qo'llar esa yon tomonlarga tushiriladi va dastlabki Diqqat holatiga qaytiladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

6-mashq

<i>Holat: 1-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	1-mashqning 1, 2 va 3-holatlari bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tana yuqoriga ko'tariladi va arqonlar ustidan o'tilib, oyoqlar iloji boricha pastga tushiriladi.

<i>Uch</i>	Bel ko'tarilib, tizzalar bukiladi, tana yuqoriga ko'tariladi va arqonlar orasidan olib o'tilib, oyoqlar yerga tushiriladi.
<i>To'rt</i>	Qo'llar yon tomonlarga tushirilib, Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

IV GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang

1-mashq

<i>Holat: I guruh, 1-mashq bilan bir xil usulda bajariladi, faqat qo'llar arqonni ushlaganda, oyoq uchi bilan turib, qo'llar to'liq yuqoriga ko'tariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Barmoqlar yerdan ko'tariladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar bukilib, oyoqlar yordamisiz iyak qo'llardan yuqoriga chiqquncha tana yuqoriga ko'tarish; tovonlar birga va oyoqlar to'g'ri bo'lishi kerak.
<i>Uch</i>	Tirsaklar to'g'irlanib, tana qo'llarning to'liq uzunligiga ko'tarilib, oyoqlar yerga tegmasdan ushlab turiladi.
<i>To'rt</i>	«Ikkinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Besh</i>	«Uchinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi, faqat oyoqlar yerga va qo'llar yon tomonlarga tushiriladi, o'quvchi Diqqat holatiga qaytadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

«Ikkinchi» va «Uchinchi» harakatlar ketma-ket uch yoki to'rt marta tez bajarilishi kerak.

2-mashq

Holat: 1-mashq bilan bir xil, lekin o'ng qo'l pastda, chap qo'l tepada, arqon chap oyoqning tashqi tomonida osilib turadi.

Ushbu mashq 1-mashq kabi bajariladi.

3-mashq

<i>Holat: 1-mashq bilan bir xil bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi, bosh orqaga tashlanib, tizzalar yuqoriga ko'tariladi. O'ng oyoq ichki qismi arqonga tekkiziladi.
<i>Ikki</i>	Oyoqlar sekinlik bilan yerga, qo'llar yon tomonlarga tushirilib, dastlabki Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingisi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

4-mashq

Holat: 2-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

Ushbu mashq 3-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat chap oyoq ichki qismi arqonga tekkiziladi.

5-mashq

<i>Holat: 1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	3-mashqdagi «Birinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar tekislanib, oyoqlar pastga tushiriladi, lekin yerga tekkizilmaydi.
<i>Uch</i>	Tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi va bosh orqaga tashlanadi, tizzalar ham yuqoriga ko'tarilib, chap oyoqning ichki qismi arqonga tekkiziladi.
<i>To'rt</i>	«Ikkinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Besh</i>	Tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi va bosh orqaga tashlanadi, tizzalar yuqoriga ko'tarilib, arqon ikkala oyoq tagi orasidan o'tkaziladi.
<i>Olti</i>	Oyoqlar yerga, qo'llar yon tomonga tushirilib, oldin tasvirlanganidek, Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

6-mashq

<i>Holat: 2-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bu mashq 5-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

V GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

<i>Holat: III guruh, 1-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	IV guruh, 1-mashqdagi «Birinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar bukilib, oyoqlar yordamisiz tana imkon qadar yuqoriga ko'tariladi; tovonlar bir-biriga tekkizilgan va oyoqlar tekis bo'lishi kerak.
<i>Uch</i>	IV guruh, 1-mashqdagi «Uchinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>To'rt</i>	«Ikkinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Besh</i>	IV guruh, 1-mashqdagi «Beshinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

«Ikkinchi» va «Uchinchi» holatlar ketma-ket uch yoki to'rt marta tezkor tempda bajarilishi kerak.

2-mashq

<i>Holat: 1-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Oyoqlardan yordam olmay, tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi, bosh orqaga tashlanib, tizzalar yuqoriga ko'tarilib, o'ng oyoqning ustki qismi o'ng qo'lda ushlab turgan arqonga tekkiziladi. Tana egilib, iloji boricha arqonlar orasidan o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Tana yana arqonlar orasiga qaytarilib, sekin oyoqlar yerga va qo'llar yon tomonlarga tushirilib, oldin ta'riflangan usulda Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

3-mashq

Holat: 1-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

Bu mashq 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat chap oyoqning ustki qismi chap qo'l bilan ushlab turgan arqonga tekkiziladi.

4-mashq

Holat: 1-mashqdagi holat bilan bir xil usulda bajariladi.

Ushbu mashq 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat ikkala oyoqning ustki qismi arqonga tekkiziladi.

5-mashq

<i>Holat: 1-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Oyoqlardan hech qanday yordam olmasdan, tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi va oyoqlar hamda tizzalar tezda yuqoriga ko'tarilib, iloji boricha orqaga egilib arqon orqali pastga tushiriladi, lekin yerga tegmaydi.
<i>Ikki</i>	Bel, tizza va oyoqlar asta-sekin yuqoriga ko'tarilib, arqon orqali burilib, oyoqlar yerga qo'yiladi va qo'llar yon tomonlarga tushirilib, oldin aytilganidek ortga, Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

VI guruh

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

<i>«Diqqat» holati. O'quvchi arqon oldida va biroz o'ng tomonda turadi.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar tez bukilib, so'ng to'g'irlanib, iloji boricha baland sakraladi. Qo'llar yuqoriga ko'tarilib, o'ng qo'l bilan yuqorida, chap qo'l bilan pastda arqon ushlanadi; Ular arqonni ushlashi bilan darhol tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi; tovonlar birga bo'lishi kerak, arqon esa o'ng oyoq tashqi tomonida osilib turadi.
<i>Ikki</i>	O'ng qo'l chap qo'lining ostiga olib kelinadi, so'ng tirsaklar to'g'irlanib, oyoqlar yerga qo'yiladi va qo'llar yon tomonlarga tushirilib, oldin aytilganidek, Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh 1-mashqqa qarang.

2-mashq

«Diqqat» holati. O'quvchi arqon oldida va biroz chap tomonda turadi.

Ushbu mashq 1-mashq bilan bir xil bajariladi, faqat «o'ng» so'zi o'rniga «chap» va aksincha o'qiladi.

3-mashq

<i>«Diqqat» holati. O'quvchi arqonlar orasida turadi, har bir arqon undan teng masofada bo'lishi kerak.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar tez egilib, so'ng to'g'irlanib, iloji boricha baland sakraladi, qo'llar yuqoriga ko'tarilib, o'ng qo'l bilan o'ng tomondagi arqon, chap qo'l bilan chap tomondagi arqon ushlanadi; qo'llar bir tekisda bo'lishi kerak; ular arqonni ushlashi bilan darhol tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga tortiladi; tovonlar birga bo'lishi kerak, arqonlar esa oyoqlarning tashqarisida osilib turadi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'ldagi arqon qo'yib yuboriladi va u taxminan 12 dyuym pastroq joyda yana qayta ushlanadi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'ldagi arqon qo'yib yuboriladi va u taxminan 24 dyuym pastroq joyda yana ushlanadi, so'ng oyoqlar yerga tushiriladi va qo'llar yon tomonlarga tushirilib, oldin tavsiflanganidek, Diqqat holatiga qaytiladi.

4-mashq

<i>«Diqqat» holati. O'quvchi arqondan biroz uzoq turadi (masofa o'quvchi malakasi oshgan sari asta-sekin oshiriladi) va arqonning biroz o'ng tomonida joylashadi.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar tezda bukilib, so'ng ular to'g'irlanib, yuqoriga va oldinga sakraladi. Qo'llar yuqoriga va oldinga irg'itilib, arqon o'ng qo'l bilan yuqoridan va chap qo'l bilan pastdan ushlab olinadi; qo'llar arqonni ushlashi bilan darhol tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi; tana egilib, arqon old va orqa tomonga tebranishiga ruxsat beriladi, tovonlar birga, arqon esa o'ng oyoq tashqarisida osilib turadi.
<i>Ikki</i>	1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

5-mashq

«Diqqat» holati: O'quvchi arqondan biroz uzoq turadi (masofa asta-sekin oshiriladi) va arqonning biroz chap tomonida joylashadi.

Bu mashq 4-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat unda «chap» so'zi «o'ng» so'zi bilan almashtiriladi va aksincha.

6-mashq

<i>«Diqqat» holati. O'quvchi arqonlardan biroz uzoq turadi (masofa malakasi oshgan sari oshiriladi), har bir arqon unga teng masofada joylashgan bo'ladi.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar tezda bukilib, so'ng ular to'g'irlanib, yuqoriga va oldinga sakraladi, qo'llar yuqoriga va oldinga irg'itilib, o'ng qo'l bilan o'ng arqon va chap qo'l bilan chap arqon ushlab olinadi; qo'llar bir xil balandlikda bo'lishi kerak; arqonni ushlagan zahoti tana yarim qo'l uzunligigacha yuqoriga ko'tariladi; tana egilib, arqonlar oldinga va orqaga tebranishiga ruxsat beriladi, tovonlar birga, arqonlar esa oyoqlarning tashqarisida osilib turadi.
<i>Ikki</i>	O'ng qo'ldagi arqon qo'yib yuboriladi va u taxminan 12 dyuym pastroq joyda yana ushlabinadi.
<i>Uch</i>	Chap qo'ldagi arqon qo'yib yuboriladi va u taxminan 24 dyuym pastroq joyda yana ushlabinadi, so'ng oyoqlar yerga, qo'llar yon tomonlarga tushirilib, oldin tavsiflanganidek Diqqat holatiga qaytiladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

7-mashq

«Diqqat» holati. O'quvchi arqon oldiga va arqonning biroz chap tomoniga yaqin masofada turadi.

Bu mashq 1-mashq bilan bir xil bajariladi.

8-mashq

«Diqqat» holati. O'quvchi arqonning oldida va biroz o'ng tomoniga yaqin masofada turadi.

Ushbu mashq 2-mashq bilan bir xil usulda bajariladi.

9-mashq

«Diqqat» holati. O'quvchi arqondan biroz uzoqda turadi (masofa o'quvchi tajribali bo'lgani sari asta-sekin oshiriladi) va biroz chap tomonda joylashadi.

Ushbu mashq 4-mashq bilan bir xil usulda bajariladi.

10-mashq

«Diqqat» holati. O'quvchi arqondan biroz uzoqda turadi (masofa o'quvchi tajribali bo'lgani sari asta-sekin oshiriladi) va biroz o'ng tomonda joylashadi.

Ushbu mashq 5-mashq bilan bir xil usulda bajariladi.


11-mashq

<i>Holat: 6-mashq harakatlari bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	6-mashqdan farqli ravishda, tana oldinga egilib, arqonlar orasida tebranishga ruxsat beriladi. Tizzalarni yuqoriga ko'targan holda, oyoqning ustki qismlari bilan arqonlar bosiladi, tana egilib, arqon orasidan o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Tana arqonlar orasiga qaytariladi va oyoqlar pastga tushiriladi.
<i>Uch</i>	Ikkala arqon qo'yib yuborilib, ular yana taxminan 12 dyuym pastroqda ushlanib, yerga tushiladi. Qo'llar yonlarga tushirilib, oldin tasvirlanganidek Diqqat holatiga qaytiladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

VII GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruh mashqlariga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruh mashqlariga qarang.

1-mashq



32-chizma

<i>Holat: III guruh, 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar va qo'llar tekis ushlanib, oyoqlar oldinga ko'tarilib, tanaga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilguncha ko'tariladi; bunda tovonlar birga bo'lishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tizzalar va qo'llar tekis ushlanib, oyoqlar sekin pastga tushiriladi, lekin yerga tekkizilmaydi.
<i>Uch</i>	«Birinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Tizzalar va qo'llar tekis ushlanib, oyoqlar sekin yerga, qo'llar yon tomonga tushirilib, avval aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

2-mashq

<i>Holat: 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tizzalar tekis va oyoqlar to'g'ri burchakda ushlanib, tirsaklar bukilib, tana iloji boricha baland ko'tariladi; bunda tovonlar birga bo'lishi kerak.
<i>Uch</i>	Tirsaklar to'g'rilanib, tana qo'llarning butun uzunligi bo'ylab pastga tushiriladi; tizzalar tekis, oyoqlar to'g'ri burchak ostida va tovonlar birga bo'lishi kerak.
<i>To'rt</i>	«Ikkinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Besh</i>	«Uchinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Olti</i>	1-mashqning «To'rtinchi» holati bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

3-mashq

<i>Holat: 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Tizzalar va qo'llar tekis ushlanib, oyoqlar oldinga ko'tariladi, arqonlar orasidan orqaga o'tilib, imkon qadar pastga tushiriladi; bunda tovonlar birga bo'lishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tizzalar va qo'llarni tekis ushlagan holda, belni asta-sekin yuqoriga ko'taring va old tomonga oshirib, pastga tushiring, shunda oyoqlar to'g'ri burchak hosil qiladi.
<i>Uch</i>	1-mashqdagi «To'rtinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.

VIII GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	<i>1-guruh mashqlarini qarang.</i>
<i>Tinch holatda turish</i>	<i>1-guruh mashqlarini qarang.</i>

1-mashq



33-chizma

<i>Holat: IV guruh, 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Oyoqlar yordamisiz tana tezda yuqoriga ko'tariladi, yarim qo'l balandligidan o'tgandan so'ng chap qo'l arqondan bo'shatiladi. O'ng qo'l tortishni davom ettirgan holda, yana taxminan 12 dyuym (30 cm) yuqoriroqda arqon ushlanadi. Tizzalar tekis, tovonlar birga va arqon o'ng oyoq tashqarisida osilib turishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tana asta-sekin pastga tushiriladi, chap qo'l bo'shatiladi va tezda pastga tushiriladi, arqon o'ng qo'ldan taxminan 12 dyuym (30 cm) pastda ushlanadi.

<i>Uch</i>	Oyoqlar yerga qo'yilib, qo'llar yon tomonlarga tushiriladi va avval aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.

2-mashq

Holat: IV guruh, 2-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.

Ushbu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat «o'ng» o'rniga «chap» va aksincha. Arqon chap oyoq tashqarisida osilib turishi kerak.

3-mashq

Holat: 1-mashqdagi kabi, faqat arqon chap oyoq tashqarisida osilib turadi.

Ushbu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon chap oyoq tashqarisida osilib turadi.

4-mashq

Holat: 2-mashqdagi kabi, faqat arqon o'ng oyoq tashqarisida osilib turadi.

Ushbu mashq 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon o'ng oyoq tashqarisida osilib turadi.

5-mashq

<i>Holat: III guruh. 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Oyoqlar yordamisiz tana tezda yuqoriga ko'tariladi, yarim tirsak balandligidan o'tgach, chap qo'lni bo'shating. O'ng qo'l tortishni davom ettirar ekan, chap qo'lni tezda yuqoriga olib boring va yana arqonni taxminan 12 dyuym (30 cm) yuqorida ushlang. Tizzalar to'g'ri, tovonlar birga va arqon oyoqlarning tashqarisida osilib turishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tana asta-sekin pastga tushiriladi, chap qo'ldan ushlagan holda arqon tezda pastga siljiriladi va o'ng qo'l bilan yana 12 dyuym pastdan ushlanadi.
<i>Uch</i>	«Birinci» holat bilan bir xil usulda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Bu «Ikkinchi» qismga o'xshaydi, faqat oyoqlar yerga va qo'llar yon tomonga tushiriladi, oldingi tartib bo'yicha Diqqat holatiga kelinadi.
<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashqqa qarang.

6-mashq

*Holat: 5-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
Ushbu mashq 5-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat «o'ng» o'rniga «chap» va aksincha o'qiladi.*

<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

IX GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

Holat: IV guruhdagi 1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.

<i>Bir</i>	Tizzalar va qo'llar to'g'ri ushlanib, oyoqlar oldinga ko'tariladi, shunda oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladi; bunda tovonlar birga bo'lishi kerak.
<i>Ikki</i>	Bu VIII guruh, 1-mashq, «Birinchii» holat kabi bajariladi, lekin oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchakda bo'ladi.
<i>Uch</i>	Bu VIII guruh, 1-mashq, «Ikkinchi» holat kabi bajariladi, lekin oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchakda bo'ladi.
<i>To'rt</i>	Bu VIII guruh, 1-mashq, «Uchinchi» holat kabi bajariladi, lekin oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchakda bo'ladi.
<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashqqa qarang.

2-mashq

Holat: IV guruhdagi 2-mashq harakatlari kabi bajariladi.

<i>Bir</i>	1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	VIII guruhdagi 2-mashqning «Birinchii» holatiga o'xshaydi, faqat oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchakda bo'ladi.
<i>Uch</i>	VIII guruhdagi 2-mashqning «Ikkinchi» holatiga o'xshaydi, faqat oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchakda bo'ladi.
<i>To'rt</i>	VIII guruhdagi 2-mashqning «Uchinchi» holatiga o'xshaydi.
<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashqqa qarang.

3-mashq

Holat: 1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon chap oyoq tashqarisida osilib turadi.

Ushbu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon tananing chap tomonida osilib turadi.

4-mashq

Holat: 2-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon o'ng oyoq tashqarisida osilib turadi.

Ushbu mashq 2-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat arqon tananing o'ng tomonida osilib turadi.

5-mashq

<i>Holat: III guruhdagi 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	VIII guruh, 5-mashqdagi «Birinchii» holatiga o'xshaydi, faqat oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchak ostida bo'ladi.
<i>Uch</i>	VIII guruhdagi 5-mashqdagi «Ikkinchi» holatiga o'xshaydi, faqat oyoqlar tanaga nisbatan to'g'ri burchak ostida bo'ladi.
<i>To'rt</i>	«Ikkinchi» holatiga o'xshaydi.
<i>Besh</i>	«Uchinchi» qismga o'xshaydi, faqat oyoqlar yerga tushadi, qo'llar yon tomonga tushiriladi, Diqqat holatiga kelinadi va oldingi tartib bo'yicha safdan chiqiladi.
<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashqqa qarang.

6-mashq

<i>Holat: 5-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi.</i>	
<i>Bu mashq 5-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi, faqat «o'ng» va «chap» so'zlari almashtiriladi.</i>	
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

X GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

<i>Holat: IV guruh, 1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	VIII guruh, 1-mashqdagi harakatlar bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	VIII guruh, 2-mashqdagi «Birinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.

«Birinchi» va «Ikkinchi» holatlarni toki o'quvchi arqonning eng yuqori qis-miga yetmaguncha yoki charchoqni his qilmaguncha takrorlaydi. U arqondan yuqoriga chiqishga urinmasligi, balki o'zida qolgan kuchni tushish uchun saqlashi kerak. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

<i>Uch</i>	Tana sekin pasaytiriladi, yuqoridagi qo'l bo'shatiladi va u tezda pastga tu-shiriladi, arqon boshqa qo'lda taxminan 12 dyuym pastroq joyda ushlanadi.
<i>To'rt</i>	«Uchinchi» holat bilan bir xil usulda bajariladi.

Oyoqlar yerga tegmaguncha »Uchinchi» va «To'rtinchi» qismlar takrorlanadi. Keyin qo'llar yon tomonga tushirilib, Diqqat holatiga kelinadi va oldingi tartib bo'yicha safdan chiqiladi.

<i>Keyingi</i>	I guruhdagi 1-mashqqa qarang.
----------------	-------------------------------

O'quvchi arqondan sirpanib tushishga urinmasligi kerak, chunki bu qo'lla-rining, ehtimol, suyagining ham shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Agar u tasodifan arqonni qo'yib yuborsa, barcha kuchini yangidan ushlashga yo'naltiri-shi lozim. Ammo u oldingi mashqlarda tajribali bo'lib ulgurgan bo'lsa, qo'llarini qo'yadigan joyga diqqat bilan qarasa va charchamasdan tushishni boshlasa, qo'li-ni arqondan qo'yib yuborish yoki sirpanib ketish xavfi umuman bo'lmaydi.

2-mashq

Holat: 1-mashqdagi harakatlar kabi bajariladi, faqat arqon chap oyoq tashqa-risida osilib turadi.

Bu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.

3-mashq

Holat: 1-mashqdagi holat bilan bir xil bajariladi, faqat oyoqlar tanaga to'g'ri burchak hosil qiladi.

Bu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.

4-mashq

<i>Holat: 2-mashqdagi holat bilan bir xil bajariladi, faqat oyoqlar tanaga to'g'ri burchak hosil qiladi.</i>	
<i>Bu mashq 1-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

XI GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Tinch holatda turish</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

<i>Holat: III guruhning 1-mashqidagi holat bilan bir xil usulda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	VIII guruh, 5-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	VIII guruh, 6-mashqdagi «Birinchii» holati bilan bir xil usulda bajariladi.

«Birinchii» va «Ikkinchi» holatlarni o'quvchi arqonning tepasiga yetguncha yoki charchaguncha takrorlaydi. Shu nuqtadan keyin u yuqoriga chiqishga urinmasligi, balki quyidagi tartibda pastga tushishni boshlashi kerak.

<i>Uch</i>	Tana sekin tushiriladi, tepadagi qo'l bo'shatilib, u tezda pastga, arqon bo'ylab taxminan 12 dyuym pastroq joyga tushiriladi va yana boshqa qo'l bilan mahkam ushlanadi.
<i>To'rt</i>	«Uchinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

«Uchinchi» va «To'rtinchi» holatlar oyoqlar yerga tegmaguncha takrorlanadi, so'ngra qo'llar yon tomonga tushiriladi va oldin aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.

<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
----------------	----------------------------

2-mashq

<i>Holat: III guruhning 1-mashqidagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	IX guruh, 5-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	IX guruh, 5-mashq bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Uch</i>	IX guruh, 6-mashqdagi «Ikkinchi» harakati bilan bir xil tarzda bajariladi.

«Ikkinchi» va «Uchinchi» holatlarini o'quvchi arqonning tepasiga yetguncha yoki charchaguncha takrorlaydi. Shu nuqtadan keyin u yuqoriga chiqishga urinmasligi, balki quyidagi tartibda pastga tushishni boshlashi kerak.

<i>To'rt</i>	I-mashq bilan bir xil bajariladi; oyoqlar tanaga to'g'ri burchak hosil qiladi.
<i>Besh</i>	«To'rtinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

«To'rtinchi» va «Beshinchi» harakatlari yerga yaqinlashguncha takrorlanadi, so'ng oyoqlar yerga qo'yilib, qo'llar yon tomonga tushiriladi va oldin aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.

<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

XII GURUH

<i>Sinf – saflan</i>	I guruhga qarang.
<i>Sinf – erkin</i>	I guruhga qarang.

1-mashq

<i>Holat: III guruhning 1-mashqdagi holat bilan bir xil tarzda bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	Tana tezda yuqoriga ko'tariladi va qo'llar yelka darajasidan o'tayotganda, ular bo'shatilib, tezda arqon bo'ylab yuqoriga siljiriladi va 12 dyuym (taxminan 30 cm) yuqorida arqon yana mahkam ushlanadi; oyoqlar to'g'ri holatda bo'lishi va arqonlar orasida osilib turishi kerak.
<i>Ikki</i>	Tana deyarli to'liq qo'llar cho'zilgan holatga tushiriladi.
<i>Uch</i>	«Birinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

«Ikkinchi» va «Uchinchi» harakatlarini o'quvchi arqonning tepasiga yetguncha yoki charchaguncha takrorlaydi. Agar charchasa, u yuqoriga chiqishga urinmasligi, balki quyidagi tartibda pastga tushishi kerak.

<i>To'rt</i>	Tana tez yuqoriga ko'tarilib, qo'llar yarim bukilgan holatdan o'tayotganda arqon bo'shatiladi, ular arqon bo'ylab pastga siljiriladi va arqon yana taxminan 6 yoki 8 dyuym pastroq joydan mahkam ushlanadi.
<i>Besh</i>	Tana deyarli to'liq qo'llar cho'zilgan holatga tushiriladi.
<i>Olti</i>	«To'rtinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.

«Beshinchi» va «Oltinchi» holatlar oyoqlar yerga tekkuncha takrorlanadi, so'ng qo'llar yon tomonga tushirilib, oldin aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.

<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
----------------	----------------------------

2-mashq

<i>Holat: III guruhning 1-mashqiga o'xshash bajariladi.</i>	
<i>Bir</i>	IX guruh, 1-mashqiga o'xshash bajariladi.
<i>Ikki</i>	1-mashqning «Birinchii» holatiga o'xshash bajariladi.
<i>Uch</i>	1-mashqning «Ikkinchi» holatiga o'xshash bajariladi.
<i>To'rt</i>	1-mashqning «Birinchii» holatiga o'xshash bajariladi.

«Uchinchi» va «To'rtinchi» holatlarini o'quvchi arqonning tepasiga yetguncha yoki charchaguncha takrorlaydi. Agar charchasa, u yuqoriga chiqishga urinmasligi, balki quyidagi tartibda pastga tushishi kerak.

<i>Besh</i>	1-mashqning «To'rtinchi» holatiga o'xshash bajariladi.
<i>Olti</i>	1-mashqning «Beshinchi» holatiga o'xshash bajariladi.
<i>Yetti</i>	1-mashqning «Oltinchi» holatiga o'xshash bajariladi.

«Oltinchi» va «Yettinchi» harakatlar oyoqlar yerga tekkuncha takrorlanadi, so'ng oyoqlar yerga qo'yiladi, qo'llar yon tomonga tushirilib, oldin aytilganidek Diqqat holatiga kelinadi.

<i>Keyingi</i>	I guruh, 1-mashqqa qarang.
<i>Sinf – o'ngga buril</i>	Guruh mashg'uloti 4-bo'limga qarang.
<i>Sinf – mashqni tugat</i>	Guruh mashg'uloti 51-bo'limga qarang.

II QISM. Q'IZ BOLALAR UCHUN MASHQLAR

GURUH BO'LIB BAJARILADIGAN MASHQLAR

Ta'riflar – I bo'limga qarang.

Umumiy qoidalar – I bo'limga qarang.

Sinf yoki Guruh mashqlari – I bo'limga qarang.

Guruh mashqlari I qismdagi bilan bir xil bo'ladi, ammo 6-bo'lim, 33-bo'lim, 41-bo'limning 3 va 4-bandlari, 43-bo'limning 2-bandi, 44-bo'lim, 45-bo'lim, 46-bo'lim, 47-bo'lim, 48-bo'lim, 49-bo'lim va 50-bo'limlar bundan mustasno.

KALISTENIK MASHG'ULOTLAR BIRINCHI MASHQLAR TO'PLAMI

<i>Saf – yig'il</i>	I bo'lim, Shakllanish usullari bo'limiga qarang.
---------------------	--



34-chizma

<i>Salomlashish</i>	«Salomlashish» buyrug'i aytilganda, iyak sekin pastga tushiriladi va gavda yengil oldinga egilib, bo'ksalarni orqaga torting. Shu bilan birga, o'ng oyoq orqaga tortiladi, o'ng oyoq barmoqlari chap oyoq tovonidan taxminan bir dyuym orqada joylashtiriladi. Tananing asosiy og'irligi o'ng oyoqqa tushiriladi, oyoqlar to'liq yerga tegib turiladi va tizzalar to'g'ri holatda saqlanadi.
<i>Diqqat</i>	«Diqqat» buyrug'i aytilganda, bu holatga juda tez emas, ozgina pauzadan keyin qaytiladi.

Ushbu to'plamdagi mashqlar uchun Birinchi to'plam, Kalistenik mashg'ulotlar, I bo'limiga qarang.

IKKINCHI MASHQLAR TO'PLAMI

<i>Saf – yig'il</i>	Ikkinchi mashqlar to'plami, Kalistenik mashg'ulotlar, I bo'limiga qarang.
<i>Salomlashish</i>	Birinchi mashqlar to'plamiga qarang.
<i>Diqqat</i>	Birinchi mashqlar to'plamiga qarang.

Ushbu to'plamdagi mashqlar uchun Ikkinchi to'plam, Kalistenik mashg'ulotlar, I bo'limiga qarang.

UCHINCHI MASHQLAR TO'PLAMI ^{1*}

<i>Saf – yig'il</i>	I bo'lim, Shakllanish usullari bo'limiga qarang.
<i>Salomlashish</i>	Birinchi mashqlar to'plamiga qarang.
<i>Diqqat</i>	Birinchi mashqlar to'plamiga qarang.

1-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llar musht qilib tugiladi va tezda yelka balandligigacha ko'tariladi, kaft orqa tomonga qaragan holda, tirsaklar esa tanaga yaqin ushlab turiladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar tekis qilinib, qo'llar to'liq yuqoriga, bosh ustiga ko'tariladi.
<i>Uch</i>	Tirsaklar bukilib, qo'llar yelkalar balandligiga tushirilib, orqaga yo'naltiriladi va tirsaklar tanaga yaqinlashtiriladi.

^{1*} 125-betdagi izohga qarang.

<i>To'rt</i>	Tirsaklar tekislanadi va qo'llar Diqqat holatiga tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	«O'zgarish» buyrug'i aytilganda, keyingi mashq boshi qismida ko'rsatilgan holatga o'tiladi.



35-chizma

2-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llar musht qilinib, oldinga ko'tariladi, kaft pastga qaratilgan, tirsaklar esa yon tomonda tanaga yaqin turadi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar tekis qilinib, qo'llar oldinga cho'ziladi.
<i>Uch</i>	Tirsaklar bukilib, qo'llar yana oldinga, tanaga yaqin olib kelinadi.
<i>To'rt</i>	Tirsaklar tekis qilinib, qo'llar Diqqat holatiga tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

3-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Tirsaklar va bilaklar bukilib, barmoqlar yelkalariga olib kelinadi, yelkalar orqaga yo'naltiriladi.

<i>Ikki</i>	Tirsaklar tekis qilinib, chap qo'l bosh ustiga ko'tariladi, bosh barmoq orqaga, shu bilan birga, o'ng qo'l yon tomonga tushiriladi, bosh barmoq oldinga qaratiladi. Ko'zlar chap qo'lga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
<i>Uch</i>	Tirsaklar va bilaklar bukilib, chap qo'l barmoqlari pastga tushiriladi, o'ng qo'l barmoqlari esa yuqoriga ko'tarilib, yelkalar oldiga olib kelinadi.
<i>To'rt</i>	Tirsaklar tekis qilinib, o'ng qo'l bosh ustiga ko'tariladi, bosh barmoq orqaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, chap qo'l yon tomonga tushiriladi. Bosh barmoq oldinga, ko'zlar o'ng qo'lga qaraydi.
<i>Besh</i>	Tirsaklar va bilaklar bukilib, o'ng qo'l barmoqlari pastga tushiriladi, chap qo'l barmoqlari esa yuqoriga ko'tarilib, yelkalar oldiga olib kelinadi.
<i>Olti</i>	Tirsaklar tekis qilinib, ikkala qo'l ham bosh ustiga ko'tariladi.
<i>Yetti</i>	Tirsaklar va bilaklar bukilib, ikkala qo'l barmoqlari ham yelkalar oldiga olib kelinadi.
<i>Sakkiz</i>	Tirsaklar tekis qilinib, qo'llar Diqqat holatiga tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

4-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	3-mashqdagi «Birinchii» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Ikki</i>	Tirsaklar tekis qilinib, chap qo'l chap tomonga cho'ziladi, bosh barmoq orqaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, o'ng qo'l yon tomonga tushirilib, bosh barmoq oldinga qaratiladi.
<i>Uch</i>	3-mashqdagi «Uchinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>To'rt</i>	Tirsaklar tekis qilinib, o'ng qo'l o'ng tomonga cho'ziladi, bosh barmoq orqaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, chap qo'l yon tomonga tushiriladi, bosh barmoq oldinga qaratiladi.
<i>Besh</i>	3-mashqdagi «Beshinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Olti</i>	Tirsaklar tekis qilinib, chap qo'l chap tomonga, o'ng qo'l esa o'ng tomonga cho'ziladi.
<i>Yetti</i>	3-mashqdagi «Yettinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>Sakkiz</i>	3-mashqdagi «Sakkizinchi» holat bilan bir xil tarzda bajariladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

5-mashq

«Diqqat» holati. Eslatma: Mashqlar sekin bajarilishi kerak.	
<i>Bir</i>	Qo'llar butun uzunligi bo'ylab oldinga cho'zilib, tana yaqinida ushlaniadi, mushtlar ichkariga qaragan holda barmoq uchlari bir-biriga tegib turadi.
<i>Ikki</i>	Kiyimlarga tekkan holda, qo'llar yuz oldidan o'tkaziladi va bosh uzra ko'tariladi, barmoq uchlari bir-biriga tegib, pastga qarab boshga ham tegib turadi. Bosh barmoqlar ortga, tirsaklar orqaga tortilgan, yelkalar esa pastga tushiriladi.
<i>Uch</i>	Qo'llar yuqoriga ko'tariladi, tirsaklar to'liq yozilgan holda qo'llar tezda yuqoriga cho'ziladi, kaflar ichkariga qaraydi.
<i>To'rt</i>	Qo'llar qiya orqaga harakatlantiriladi va iloji boricha ko'krak oldinga chiqarilib, asta-sekin Diqqat holatiga qaytariladi.
<i>Besh</i>	Tirsaklar bukilmasdan, yelkalar orqaga yo'naltirilgan holda qo'llar yon tomondan yuqoriga ko'tariladi. Ular boshga tekkanda, kaflar oldinga, barmoqlar yuqoriga qaratiladi. Bosh barmoqlar o'zaro tutashib, chap bosh barmoq oldinda bo'ladi.
<i>Olti</i>	Qo'llar to'piqlarga tekkuncha oldinga egiladi, ular tizzalar bilan birga tekis holatda bo'ladi.
<i>Yetti</i>	Bosh barmoqlar tutashgan holda tana tik holatga qaytariladi, qo'llar to'g'ri ushlangan holda yana bosh uzra ko'tariladi.
<i>Sakkiz</i>	Qo'llar ajratilib, tirsaklar qiya orqaga harakatlantiriladi va yelkalar bilan bir chiziqqa kelguncha cho'ziladi. So'ngra qo'llar asta-sekin pastga tushirilib, Diqqat holatiga qaytariladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

6-mashq

«Diqqat» holati, lekin qo'llar oldinga ko'tarilgan, tirsaklar to'liq yozilgan va og'iz bilan bir chiziqda joylashadi; kaflar birlashtirilgan, bosh barmoqlar ko'rsatkich barmoqlarga yaqin turadi.	
<i>Bir</i>	Qo'llar tezda ajratilib, pastga qiya yo'nalishda orqaga tashlanadi; shu bilan birga gavda oldinga egilib, tana og'irligi oyoqlarning old qismiga o'tkaziladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar to'g'ri tutilgan holda, ular oldinga, og'iz bilan bir chiziqda va uzun qilib cho'ziladi. Kaflar bir-biriga tekkizilib, tovonlar esa yerga tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

7-mashq

<i>«Diqqat» holati.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llar to'g'ri tutilgan holda, kaftlar mushtlanadi va oldinga, og'iz bilan bir chiziqqa ko'tariladi. Bosh barmoqlar yuqoriga qaratilgan, barmoqlar esa bir-biriga tegib turadi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar tezda ajratilib, yelkalar bilan bir chiziqda orqaga yo'naltiriladi, ularning tashqi tomoni orqaga qarab turadi.
<i>Uch</i>	Qo'llar oldindan orqaga aylantirilib, kerakli miqdorda takrorlanadi.
<i>To'rt</i>	Qo'llar yelkalar bilan bir chiziqda to'xtatiladi.
<i>Besh</i>	Qo'llar to'g'ri ushlanib, oldinga, ular og'iz bilan bir chiziqda ko'tariladi. Bosh barmoqlar yuqoriga qaratilgan, barmoqlar esa bir-biriga tegib turadi.
<i>Olti</i>	Diqqat holatiga qayting.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

8-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin chap qo'lning tirsagi bukilgan va yelka ustidan boshga ko'tariladi: qo'lning orqa tomoni orqaga qaratiladi.</i>	
<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va chap qo'l orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

9-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin o'ng qo'lning tirsagi bukilgan va yelka ustidan boshga ko'tarilgan: qo'lning orqa tomoni orqaga qaratiladi.</i>	
<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va o'ng qo'l orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

10-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin har ikkala qo'l tirsaklari bukilgan va yelkalardan bosh ustiga ko'tarilgan: chap qo'l oldinda, orqa tomoni esa orqaga qaragan.</i>	
<i>Bir</i>	Yelkalar orqaga tortiladi va qo'llar orqadan oldinga qarab bosh atrofida aylantiriladi, avval chap qo'ldan boshlab, so'ng o'ng qo'l bilan davom ettiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

11-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin qo'llar yelkalar bilan bir chiziqda ko'tarilgan, qo'l orqa tomoni pastga qaragan va barmoqlar ochilgan holatda bo'ladi.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llar aylantiriladi, ularning orqa tomoni yuqoriga qaratiladi va shu bilan birga kaftlar yopiladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar aylantiriladi, ularning orqa tomoni pastga qaratiladi va shu bilan birga kaftlar ochiladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

12-mashq

<i>«Diqqat» holati, lekin qo'llarning tirsaklari bukilgan holda ko'tarilgan, kaftlar yopilgan va ko'krakka tegib turadi, qo'lning orqa tomoni oldinga qaratiladi.</i>	
<i>Bir</i>	Chap qo'l oldinga cho'ziladi, chap yelka oldinga buriladi, qo'lning orqa tomoni pastga qaraydi va bosh chap tomonga egiladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l yana ko'krakka olib kelinadi, yelkalar oldinga qarab tekislanadi.
<i>Uch</i>	O'ng qo'l oldinga cho'ziladi, o'ng yelka oldinga buriladi, qo'lning orqa tomoni pastga qaraydi va bosh o'ng tomonga egiladi.
<i>To'rt</i>	O'ng qo'l yana ko'krakka olib kelinadi, yelkalar oldinga qarab tekislanadi.
<i>Besh</i>	Ikkala qo'l oldinga cho'ziladi, yelkalar oldinga qarab tekislanadi, qo'lning orqa tomoni pastga qaraydi va bosh tik turadi.
<i>olti</i>	Ikkala qo'l yana ko'krakka olib kelinadi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

13-mashq

<i>«Diqqat» holati, tik turib qo'llar musht qilingan holatda tirsakdan yuqoriga ko'tariladi. Kaftning orqa tomoni esa oldinga qaragan bo'ladi.</i>	
<i>Bir</i>	Qo'llarni yelka chizig'i bo'ylab tez harakatlantirilgan holda yelkalar orqaga tortiladi, bilaklar tik tutilib qo'llarning orqa qismini esa orqaga qaratiladi. Shu bilan birga, tovon uchida turib, gavda biroz yuqoriga ko'tariladi.
<i>Ikki</i>	Qo'llar oldinga birlashtirilib tovonlar yerga tushiriladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.



36-chizma

14-mashq



37-chizma

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	Chap oyoq bilan oldinga qadam tashlanadi, chap tizza to'piqqa perpendikulyar holatda bo'ladi, o'ng tizza esa tekis va mustahkam ushlab turiladi. Oyoqlar yerga tegib, tana tik holda saqlanadi. Bunday holatda yelka asta-sekin o'ng tomonga buriladi, shu bilan birga chap qo'l yelkadan baland ko'tarilib, tirsak va bilak bukiladi. Kaftning orqa tomoni yuqoriga qaratilib, barmoqlar uchi boshga deyarli tegib turadi. Iyak biroz ko'tarilib, ko'zlar yuqoriga va oldinga qaratiladi, o'ng qo'l esa o'ng oyoqning orqasida turadi.
<i>Ikki</i>	Chap oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi, chap tizza to'piqqa perpendikulyar holatda bo'ladi, o'ng tizza esa tekis va mustahkam ushlab turiladi. Oyoqlar yerga tegib, tana tik holda saqlanadi. Bunday holatda yelka asta-sekin chap tomonga buriladi, shu bilan birga o'ng qo'l yelkadan baland ko'tarilib, tirsak va bilak bukiladi. Kaftning orqa tomoni yuqoriga qaratilib, barmoqlar uchi boshga deyarli tegib turadi. Iyak biroz ko'tarilib, ko'zlar yuqoriga va oldinga qaratiladi. Chap qo'l esa orqaga, chap oyoq ortida turadi
<i>O'zgarish</i>	I-mashqqa qarang.

15-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	O'ng oyoq bilan oldinga qadam tashlanadi, o'ng tizza to'piqqa perpendikulyar holatda bo'ladi, chap tizza esa tekis va mustahkam tutiladi. Oyoqlar yerga tegib, gavda tik holatda saqlanadi. Shu bilan birga yelka asta-sekin chap tomonga buriladi, o'ng qo'l esa yelkadan yuqoriga ko'tarilib, tirsak va bilak bukiladi. Kaftning orqa tomoni yuqoriga qaratilib, barmoqlar uchi boshga deyarli tegib turadi. Iyak biroz ko'tarilib, ko'zlar yuqoriga va oldinga qaratiladi, chap qo'l esa chap oyoq ortida turadi.
<i>Ikki</i>	O'ng oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi, o'ng tizza to'piqqa perpendikulyar holatda bo'ladi, chap tizza esa tekis va mustahkam ushlab turiladi. Oyoqlar yerga tegib, tana tik holda saqlanadi. Bunday holatda yelka asta-sekin chap tomonga buriladi, shu bilan birga o'ng qo'l yelkadan baland ko'tarilib, tirsak va bilak bukiladi. Kaftning orqa tomoni yuqoriga qaratilib, barmoqlar uchi boshga deyarli tegib turadi. Iyag biroz ko'tarilib, ko'zlar yuqoriga va oldinga qaratiladi chap qo'l esa chap oyoq ortida turadi.
<i>O'zgarish</i>	I-mashqqa qarang.

16-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	O'ng qo'l o'ng yelka ostiga olib kelinadi, bosh barmoq oldinga qaratilib, chap qo'l esa yelkadan baland ko'tariladi, tirsak va bilaklar bukilib, kaftning orqasini yuqoriga qaratiladi, barmoqlar uchi boshga tegib tursin, tana esa o'ng tomonga egilgan holatda bo'ladi.
<i>Ikki</i>	Chap qo'l chap yelka ostiga olib kelinadi, bosh barmoq oldinga qaratilib, o'ng qo'l yelkadan baland ko'tariladi, tirsak va bilaklar bukilib, kaftning orqasi yuqoriga qaratilgan holda, barmoqlar uchi esa deyarli boshga tegib turiladi, tana esa chap tomonga egilgan holatda bo'ladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

17-mashq



38-chizma

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	14-mashqdagi harakatlarda ko'rsatilganidek chap oyoq bilan oldinga qadam tashlanib, qo'llarning orqa tomoni bel balandligida bir-biriga tegib turiladi.
<i>Ikki</i>	14-mashqdagi harakatlarda ko'rsatilganidek Chap oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi. Shu bilan bir vaqtda qo'llar yuqoriga ko'tariladi va yuzga tegadigan qilib harakatlantiriladi. Keyin qo'llar boshdan balandroq ko'tarilib, yelka orqaga tortiladi. So'ngra qo'llar orqaga qiya holatda tushirilib, yelkalar bo'sh qo'yiladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

18-mashq

«Diqqat» holati.	
<i>Bir</i>	15-mashqdagi harakatlarda ko'rsatilganidek o'ng oyoq bilan oldinga qadam tashlanadi, qolgan qismi 17-mashqdagi harakatlar bilan bir xil bo'ladi.
<i>Ikki</i>	15-mashqdagi harakatlarda ko'rsatilganidek o'ng oyoq bilan orqaga qadam tashlanadi qolgan qismi 17-mashqdagi harakatlar bilan bir xil bo'ladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

19-mashq

«Ikkinchi holat», Birinchi mashqlar to'plamdagi 5-mashqdagi kabi, undan farqli ravishda chap oyoq yer yuzasidan to'rt dyuym ko'tarilgan bo'lib va tana og'irligi o'ng oyoqqa tushadi.

Eslatma: – Mashqlarni oldinga harakatlanmasdan bajariladi.

<i>Bir</i>	O'ng oyoq bilan chap oyog'ingizning old qismiga sakrab o'tilib va chap oyoqning old qismida bir marta sakraladi, o'ng oyoqni orqaga harakatlantirgan holda, tag qismi yer yuzasidan to'rt dyuym (10 cm) yuqorida bo'lishi kerak; o'ng oyoq o'ng tomonga, chap oyoq esa oldinga qaragan bo'ladi.
<i>Ikki</i>	Chap oyoq bilan o'ng oyoqning old qismiga sakrab o'tiladi va o'ng oyoqning old qismida bir marta sakrab, chap oyoqni oldinga harakatlantirganda, tag qismi yer yuzasidan to'rt dyuym (10 cm) yuqorida bo'lishi lozim; o'ng oyoq o'ng tomonga, chap esa oldinga qaragan bo'ladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

20-mashq

«Ikkinchi holat» – Birinchi to'plam, 2-mashq harakatlaridagidek bir xil bajariladi, faqat undan farqli ravishda o'ng oyoq yer yuzasidan to'rt dyuym (10 cm) ko'tarilgan bo'lib, tana og'irligi chap oyoqqa tushadi.

Eslatma: – Mashqlarni oldinga harakatlanmasdan bajariladi.

<i>Bir</i>	Chap oyoq bilan o'ng oyoqning old qismiga sakrab o'tilib va o'ng oyoqning old qismida bir marta sakraladi, chap oyoqni orqaga harakatlantirgan holda, tag qismi yer yuzasidan taxminan to'rt dyuym (10 cm) yuqorida ushlanadi, chap oyoq chap tomonga, o'ng esa oldinga qaratiladi.
------------	---

<i>Ikki</i>	O'ng oyoq bilan chap oyoqning old qismiga sakrab va chap oyoqning old qismida bir marta sakraladi, o'ng oyoqni oldinga siljitib, tag qismi yer yuzasidan taxminan to'rt dyuym (10 cm) yuqorida bo'ladi; chap oyoq chap tomonga, o'ng oyoq esa oldinga qaragan holatda bo'ladi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

21-mashq

Holat: Birinchi to'plamning 4-mashqdagi «Birinchi holat»ga o'xshash, faqat chap oyoq o'ng oyoqning chap tomoniga taxminan o'n ikki dyuym (30 cm) masofada bo'lib va yer yuzasidan taxminan to'rt dyuym (10 cm) ko'tarilgan bo'lishi kerak.

Eslatma: Mashqlarni oyoqlarni birlashtirmasdan bajariladi.

<i>Bir</i>	O'ng oyoqqa tayanib chap oyoqning old qismiga sakrab o'tiladi, shu oyoqda bir marta sakrab, o'ng oyoqni yon tomonga harakatlantirilib, tag qismini yer yuzasidan to'rt dyuym (10 cm) balandlikda ushlanadi. Oyoqlar yo'nalishi boshlang'ich holatdagidek qoladi.
<i>Ikki</i>	Chap oyoqqa tayanib, o'ng oyoqning old qismiga sakrash talab etiladi. So'ng, shu oyoqda bir marta sakrab, chap oyoq yon tomonga harakatlantiriladi. Uning tag qismi yer yuzasidan to'rt dyuym (10 cm) balandlikda bo'ladi. Oyoqlarning yo'nalishi esa boshlang'ich holatdagidek saqlanadi.
<i>O'zgarish</i>	1-mashqqa qarang.

22-mashq

«Ikkinchi holat», Birinchi to'plam, 5-mashq harakatlaridagidek bir xil bajariladi, faqat bunda chap oyoq yerdan taxminan to'rt dyuym baland ko'tarilgan bo'ladi.

